

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX KAFEDRASI
XALILOV AXRORBEKNING

BUYUK IPAQ YO'LNING O'RTA OSIYO
XALQLARI MODDIY VA MA'NAVIY HAYOTIGA
TA'SIRI.

mavzusidagi

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi, Kenjayev Erkin
Habibullayevich

Namangan – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. BUYUK IPAQ YO'LNING O'RTA OSIYO XALQLARI MODDIY MADANIYATI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....8

1.1. O'zbeklarning turar joylar bilan bog'liq an'analarida etnointegratsion jarayonlarning tutgan o'rni.....	8
1.2. O'zbek xalqi milliy kiyimlari transformatsiyasida Buyuk Ipak yo'lining tutgan o'rni.....	17
1.3. An'anaviy milliy taomlardagi etnik va umummintaqaviy jihatlar.....	29

II BOB. O'RTA OSIYO XALQLARI MAISHIY TURMUSHIDA AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSION JARAYONLARGA BUYUK IPAQ YO'LNING KO'RSATGAN TA'SIRI.....35

2.1. O'zbek xalqining diniy turmush tarziga Buyuk Ipak yo'lining ko'rsatgan ta'siri.....	35
2.2. Etnomadaniy jarayonlarda etnoslarning o'zaro savdo-sotiq munosabatlari.....	40
2.3. Urf-odat va marosimlardagi etnik va lokal madaniyat uyg'unligi.....	46

XULOSA.....	52
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	56
---	-----------

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi: Mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab olgan O‘zbekiston XXI asrga o‘z fuqarolarining siyosiy faolligi ortib, ertangi kunga ishonchi tobora mustahkamlanib borayotgan bir sharoitda qadam qo‘ydi. Darhaqiqat, mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti I. A. Karimov rahbarligida olib borilayotgan ichki va tashqi siyosat bugungi kunga kelib naqadar to‘g‘ri, xalqchil siyosat ekanligini keng jamoatchilik tan olmoqda.

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mustaqil davlatlar kabi polietnik, ya'ni ko‘p elatlari davlat hisoblanadi. Hozirgi kunda uning hududida o‘zbeklar bilan birga yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydilar. Har bir millat o‘zining tili, betakror madaniyati, urf-odat va an'analariga ega. O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi¹. Zero har bir etnik birlik son jihatidan qanchalik ko‘p yoki kam bo‘lmisin, albatta, o‘z etnik qiyofasiga ega.

Shuni o‘z o‘rnida qayd etish kerakki, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlarini va ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai sifatida xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Shuni inobatga olgan holda Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”²

O‘zbekistonning boyliklari ko‘p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 4.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 29–30.

do'stlik va hamjihatlikdir³. Istiqlol tufayli ko'pmillatli yurtimiz tarixini xolisona o'rganish, respublikadagi turli xalqlarning etnik an'analari va madaniyatini saqlab qolishga, rivojlantirishga, millatlararo munosabatlarni o'rganishga bo'lган e'tibor kuchayib bormoqda. Darhaqiqat, I. A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir⁴. Demak, respublikaning asosiy tub joy aholisi hisoblangan o'zbeklar bilan birga yashayotgan boshqa etnik guruhlarga xos bo'lган xususiyatlarni o'rganish va rivojlantirish favqulodda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda jahon hamjamiatining ajralmas qismi bo'lган O'zbekistonda ham jamiyat hayotidagi tub burilishlar va milliy tafakkuridagi o'zgarishlar tufayli o'zbek xalqi etnologiyasiga qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu borada milliy davlatchilikning mahalliy boshqaruв usullari, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi kabi muhim muammolar bilan birga an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, tarixiy-etnografik mintaqalar etnografiyasi hamda turli hududlarga xos etnolokal an'analarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, bu sohada bajarilayotgan tadqiqotlar ham ko'lam, ham mazmun-mohiyat jihatidan boyib borishining asosiy sabablaridan biri – bu mustaqillik yillarida o'tmish tarix va milliy qadriyatlar hamda an'analarga bo'lган qiziqishning keskin ortganligidan, deb aytish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli mamlakat bo'lgani bois nafaqat o'zbek xalqi, balki mamlakatimiz hududida yashayotgan boshqa xalqlarning etnomadaniy va ijtimoiy-diniy yaqinligi millatlararo etnomadaniy muloqotlarni tarixiy-etnografik aspektda o'rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda bitiruv malakaviy ishi quyidagi omillarga ko'ra dolzarb hisoblanadi:

- Birinchidan, hozirgi davrga qadar Buyuk Ipak yo'lining o'zbek xalqi- ning moddiy va ma'naviy hayotiga ta'siri masalasi sifatida etnografik materiallar asosida tadqiq qilinmagan;

³ Каримов И. А. Хафсизлик ва тинчлик учун курашамиз. 10–жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 181.

⁴ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.91.

– ikkinchidan, XX asrda O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, mahalliy o‘zbek xalqi turmush tarzi va madaniyatida yuz bergan ulkan o‘zgarishlar va transformatsion jarayonlarga Buyuk Ipak yo‘lining ta’siri, ichki va tashqi omillar natijasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari hamda o‘zbek xalqi turmush tarzi, milliy psixologiyasidagi o‘zgarishlarni ijtimoiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bilan bog‘liqlikda o‘rganish muhim dolzarb ahamiyatga ega;

– uchinchidan, o‘zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi va moddiy mada niyatidagi transformatsion o‘zgarishlarga Buyuk Ipak yo‘lining ko‘rsatgan ta’sirini va aholining e’tiqodiy qarashlari, an’analari va urf-odatlarini tarixiy-etnografik jihatdan tadqiq etish orqali hududdagi etnointegratsion jarayonlarning tub ildizlariga oydinlik kiritiladi;

– to‘rtinchidan, bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib borayotgan tarixiy integratsion jarayonda isdinlararo bag‘rikenglik tamoyilining Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq jihatlari keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasi. Tadqiq etilayotgan mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi II asrda shakllangan Buyuk Ipak yo‘li XV asrga qadar Sharq va G‘arb xalqlariga xizmat qilib keldi. Oradan o‘tgan 17 asr davomida mazkur tranzit yo‘li ta’siri natijasida O‘rta Osiyo xalqlari nafaqat iqtisodiy jihatdan, qolaversa, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o‘z boshidan o‘tkazdi.

Mazkur jarayonlar uzoq yillar mobaynida tarixchilar tomonidan qiziqish bilan o‘rganib kelindi. Bunday tadqiqotlar sirasiga N. Bichurin, K. Shoniyoзов, V. Radkevich, A. Shevyakov, B. Ahmedov, F. Sulaymonova, A. Xo‘jaev, M. Jo‘rayev, U. Abdullayev, Sh. Yovqochev, A. Ashirov⁵ kabilarning asar, maqola va dissertatsi-

⁵ Qarang: Бичурин Н. Я. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М–Л.: Наука, 1950. Т. 1. – 312 с; O’sha muallif: Средняя Азия и Восточный Туркестан. – Алма-Ата: Гылым, 1997. – 353 с; Шониёзов К. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1974. – 342 с; O’sha muallif: Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б; Радкевич В. А. Великий Шелковый путь. – М.: Наука, 1990. – 256 с; Шевяков А. Култовый фольклор в Шелковой пути. – Ташкент., 1990. – 179 с; Ахмедов А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 145 б; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 457 б; Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. – 456 б; Жўраев М. Ипак йўли афсоналари. – Тошкент: Фан, 1993; Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар.

yalarini kiritish mumkin. Shu ma'noda qaraganda, mazmun jihatidan murakkab va davriy farqlarga ega bo'lgan ilmiy adabiyotlarni ilmiy-konseptual nuqtai nazardan uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Rossiya imperiyasi
2. Sovet davri nashrlari.
3. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi aslida juda katta. Chunki, mazkur davr Buyuk Ipak yo'lining shakllanishidan to uning inqirozigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi, lekin biz tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda XIX asrning oxiri – XXI asrning boshlari olindi. Chunki XIX asrning oxirlariga kelganda jamiyatda yuz bergen ijtimoiy o'zgarishlar jahon xalqlari, shu jumladan, O'rta Osiyo aholisining an'anaviy turmush tarzida ham o'z aksini topa boshladi. O'z o'rnida shuni qayd etish lozimki, mazkur jarayonlar O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynadi.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti. Tadqiqotning ob'yekti sifatida hozirgi kunda O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan Buyuk Ipak yo'lining ta'sirini tarixiy va etnografik ma'lumotlarni ko'rsatish mumkin. O'rta Osiyo xalqlari Buyuk Ipak yo'lining ta'siri natijasida moddiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlarning hozirgi kundagi ko'rinishlarini tadqiqot predmeti sifatida ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Bitiruv malakaviy ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Davriy matbuot materiallari.
2. Tarixchi va etnograflarning ilmiy izlanishlari yakunlari aks etgan asarlar.
3. Dala yozuvlari.

– Тошкент: Янги авлод, 2005. – 215 б; Ёвқочев Ш. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи. Ўкув қўлланма.
– Тошкент, 2005; Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: Мерос, 2001. – 31 б; O'sha muallif:
Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 275 б.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarixiy-etnografik materiallar asosida O‘rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan Buyuk Ipak yo‘lining ta’sirini etnografik materiallar asosida etnologik aspektda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan metodologik, ilmiy-nazariy, konseptual ko‘rsatmalar tadqiqot ishida nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, I. A. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” (Toshkent, 1998), “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” (Toshkent, 2008) va boshqa asarlarida ilgari surilgan etno-milliy va diniy masalalarga doir fikrmulohazalar tadqiqotning nazariy bazasida muhim o‘rin egalladi.

Qolaversa, ishda N. Bichurin, K. Shoniyofov, V. Radkevich, A. Shevyakov, B. Ahmedov, F. Sulaymonova, A. Xo‘jayev, M. Jo‘rayev, U. Abdullayev, Sh. Yovqochev, A. Ashirov kabi mutaxassislar tomonidan bildirilgan muhim ilmiy-nazariy xulosalarga asoslanildi.

Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asosi sifatida tarixiy va etnoijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda qabul qilingan xolislik, tarixiy izchilliliklik tamoyillari hamda tarixiy-qiyosiylik metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O‘rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan Buyuk Ipak yo‘lining ta’sirini jahon dirlari va qadimiy diniy e’tiqodlarga taqqoslangan holda tahlil qilindi hamda o‘zbek xalqi an’anaviy turmush tarzidagi diniy tushunchalar va marosimlar kompleks tarzda, alohida ilmiy tadqiqot obekti tarzida o‘rganildi. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida to‘plangan ma’lumotlardan fan tarixi, dinshunoslik, O‘zbekiston tarixi, etnologiya va sotsiologiya fanlaridan mustaqil hamda kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkin.

Mavzuning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar, axborotchilar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. BUYUK IPAK YO‘LINING O‘RTA OSIYO XALQLARI MODDIY MADANIYATI TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

1.1. O‘zbeklarning turar joylar bilan bog‘liq an'analarida etnointegratsion jarayonlarning tutgan o‘rni

Jahon tarixida xaqlarning iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy va madaniy hayotida muhim o`rin tutgan bir necha savdo yo`llari mavjud bo`lgan. Qadimgi Rus va Skandinaviya xalqlarini bir biri bilan bog’lagan savdo yo`li, Afrikada asosan Sahara cho`li orqali o`tgan tuz yo`li kabilar bunga misol bo`ladi. Lekin, ular orasida eng mashhuri va yirigi bu – Buyuk Ipak yo`lidir. Bu yo`l Atlantika okeani qirg’oqlaridan Tinch okeani qirg’oqlargacha Osiyo qit’asi mamlakatlarini O’rta er dengizi va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan bog’lagan edi. Bu nafaqat yo`l, balki sharq bilan G’arbni biri biri bilan bog’lagan ko`pirik ham edi.

Buyuk Ipak yo`li mil. av. II asrda paydo bo`ldi. Lekin unga ushbu nom 1877 yilda Fon Rixtgoenning “Xitoy” nomli asarida beriladi. Bu o`rinda shuni ta`kidlab o`tish lozimki, Buyuk Ipak yo`liga qadar, O`rta Osiyo va Sharq xalqlarini biri biri bilan bog’lab turuchi yo`llar ham mavjud bo`lgan. Shulardan biri – Lal yo`li edi. U Pomir tog’laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo va Misr hududlarigacha borgan. Bu yo`lning paydo bo`lishiga Amudaryoning yuqori qismidan ya`ni, Pomirdan qazib olinadigan lal toshlari sabab bo`lgan. Bu qimmatbaho toshlar Shumer va Misr hukmdorlari tomonidan yuqori baholangan. Ularning maqbaralari ochilganda aynan Badaxshon lal toshlari topilgan. Ikkinci yo`l – Shoh yo`li bo`lib, u mil.av. VI-IV asrlarda faoliyat ko`rsatib, Eronning poytaxti Suza shahrini Kichik Osiyoning Efes va Sard shaharlari bilan bog’lab turgan. Uning bir tarmog’i esa, Erondan Baqtriya, Sug’diyona, Toshkent vohasi va Qozog’iston xudularigacha tarqalgan. Yuqoridagilardan tashqari yana Oltin yo`l, Nefrit yo`l, Sahro yo`li kabi savdo yo`llari faoliyat ko`rsatgan⁶.

Mana shu Buyuk Ipak yo`li O’rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan turar-joylarga ham o‘z ta’sirini o’tkazmasdan qolmadi.

⁶ Qarang: Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. – Б. 14.

An'anaviy moddiy madaniyatning etnohududiy xususiyatlarni ko'rsatuvchi muhim komponentlaridan biri turar joylardir. Xalq turar joylarining xarakterini o'z navbatida ularning turli tabiiy-geografik muhitda joylashishi, turar joylarning turlari va shakllari belgilab beradi. Shuningdek, etnoslarning turli tabiiy-geografik mintaqalarda joylashuvida, ular o'zlarining etnik an'analaridan kelib chiqqan xolda o'zlashtirishi madaniy o'ziga xoslikning muhim omili hisoblanadi.

Odatda, turar joy deyilganda, axolining yashaydigan uyi tushuniladi. Lekin fikrimizcha turar joylar atamasi ancha keng tushuncha. Bizningcha, turar joy deganda nafaqat axoli yashaydigan uyni, balki xovli va undagi xo'jalik va maishiy xonalarni, shuningdek, keng ma'noda shaxar, qishloq va ovullarni xam tushunish kerak. Shu jihatdan turar joylar atamasini axoli manzilgohlariga xam qiyoslash mumkin. Manzilgoh so'zi aslida ikki o'zakdan tashkil topgan, ya'ni, manzil - arabcha - "yetib boriladigan joy", goh esa forscha - "joy" degan ma'noni anglatadi⁷. Zotan, manzilgoh deganda axoli maskan tutib yashaydigan joy tushuniladi.

Ma'lumki, turar-joylar va ular bilan bog'liq xo'jalik xonalari moddiy madaniyatning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Turarjoylar turlarining vujudga kelishi va rivojlanishi ko'plab omillarga, jumladan, xalqning turmush tarzi, xo'jalik turlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va tabiiy-geografik muhit bilan bog'liq.

Ma'lumki, O'rta Osiyo mintaqasida turli tarixiy-madaniy viloyatlar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoiti, aholi xo'jalik-madaniy rivojlanishining tarixiy yo'nalishlari asosida xo'jaligida va moddiy madaniyatida o'ziga xoslik kasb etgan. Jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida aholining turarjoylari turlari, tuzilishi, joylashish xususiyatlariga ko'ra, O'zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlarida ham bir-biridan birmuncha farq qilgan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi O'zbekiston hududida aholining ko'pchiligi qadimdan qishloqlarda yashab kelgan. XIX asr – XX asr boshlarida yarim ko'ch-

⁷ Qarang: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.5. – Тошкент: ЎзМЭ, 2004. – Б. 445.

manchi va yarim o‘troq o‘zbek urug‘larining o‘troqlashishi natijasida qishloqlar aholisi soni o‘sib borgan⁸.

Tarixiy-madaniy hududlarning xo‘jalik va madaniy shakllanishining tarixiy sharoitlari, aholining etnik tarkibi hamda tabiiy-geografik sharoit aholining zichligiga ham ta’sir etgan. XX asr boshlaridagi ma'lumotlar asosida O‘zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlari aholisi zichligi bo‘yicha aholi joylashgan hududlarni 4 ta hududga ajratish mumkin: aholi juda zich (1 km^2 da 70 va undan ortiq kishi) joylashgan hududlar; aholi zichligi o‘rtacha (1 km^2 da 20-70 kishi) bo‘lgan hududlar; aholi kam joylashgan (1 km^2 da 20 kishigacha) va aholi siyrak (1 km^2 da 1 kishigacha) joylashgan hududlar. Aholi zichligi yuqori hududlarga Farg‘ona vodiysining madaniy vohalari, Norin va Qoradaryo oralig‘i kirgan. Aholi zichligi o‘rtacha hududlarga – Qarshi vohasi, Surxondaryoni o‘rta qismining o‘ng qirg‘og‘i, Shimoliy Farg‘ona G‘ovasoy bilan va boshqa hududlar kirgan. Bu hududlarda ko‘proq sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanilgan.

Kam aholili hududlarga Shimoliy Farg‘onaning sharqiy qismi, Qashqadaryo havzasining yuqori qismi, Surxondaryo vodiysi atroflari, Sheroboddaryo vohasi kirgan. Bu rayonlar, asosan, lalmi dehqonchilik hududlarida hamda yaylov chorvachiligi hududlarida joylashgan.

Aholi siyrak joylashgan hududlarga Markaziy Farg‘ona, Surxondaryo okrugining cho‘l-dasht qismi kirgan. Bu hududlar cho‘l-dasht hududlarida joylashgan bo‘lib, aholi asosan yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullangan.

Etnik guruhlar o‘rtasida madaniy-etnik aloqalar ayniqsa savdo-sotiqlar olib boriladigan qishloqlarda qizg‘in kechgan va bu hududlar qaysidir ma’noda turar-joylarning unifikatsiyalashuv jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Yakkabog‘, Qorabog‘, Koson, Jeynov va boshqa qishloqlarda qora uylar uchun yog‘och sinchlar sotiladigan markazlarga aylangan. Boysun, Darband, Chim, Xo‘jaipak va boshqa yirik qishloqlar esa nafaqat hududning iqtisodiy hayotida, balki aholining madaniy hayotida ham muhim rol o‘ynagan. Bu qishloqlarda turli sayillar, tomosha va o‘yinlar o‘tkazilib turilgan.

⁸ Qarang: Алимова Д. А., Аширов А. А. Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар (киёсий-этнологик таҳлил). – Тошкент, 2011. – Б. 72.

Farg‘ona vodiysining Chortoq, Chust, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘r-g‘on, Andijon, Asaka, Jalolquduq, Qo‘rg‘ontepa, Farg‘ona kabi tog‘oldi rayonlarda zich planirovkali qishloqlar keng tarqalgan⁹. Bu yerlarda yashovchi aholining asosiy mashg‘ulotlari dehqonchilik va chorvachilik hisoblangan. Mazkur tumanlardagi qishloqlarda qoida bo‘yicha qishloq markazida masjid, choyxona, juvozxona, tegirmon va shaharlardagiga nisbatan kichik bozorlar joylashgan. Bu yerlardagi bozorlarga o‘troq aholidan tashqari yarim o‘troq chorvador aholi ham o‘z mahsulotlarini, ya’ni jun va teridan qilingan gilam, kigiz, mesh, po‘stak kabilarni olib kelib sotganlar.

O‘rganilayotgan davrda qishloqlardagi hovlilar atrofi devor bilan o‘ralgan va o‘ralmagan holda bo‘lgan. Turarjoy atrofi devor bilan o‘ralgan hovlilarga darvozaxona orqali kirilgan. Bunday hovlilar Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, odatda, hovlilar ichkari va tashqariga bo‘lingan. Tashqi hovlida mehmonxona va otxona bo‘lgan. Hunarmand aholining tashqi hovlisida ustaxona bo‘lgan. U yerda usta o‘z shogirdlari bilan ishlagan. Ichkari hovli ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosan, yashash xonalari hamda xo‘jalik ehtiyoji uchun qurilgan xonalar – oshxona, omborxona, o‘tinxona, somonxona va boshqalar bo‘lgan. Kambag‘al oilalarning hovlilari esa umuman ikki qismga ajratilmagan. Bunday oilalarga erkak mehmonlar kelgan vaqtida ayollar va yosh bolalar qo‘shnining uyiga chiqib turishgan.

Hovlilar atrofi devor bilan o‘ralmagan qishloqlar lalmi dehqonchilik hududlarida joylashgan. Bunday qishloqlarning aksariyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Bunday qishloqlar va hovlilar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi o‘zbeklarning o‘troqlashishi natijasida paydo bo‘lgan va XX asr boshlarigacha ularda chorvachilikka xos turmush tarzi izlari ko‘zga tashlangan. Ta‘kidlash joizki, chorvador aholi o‘zlarining qishlovleri o‘rnida uzoq vaqt mobaynida, ba’zi tumanlarda o‘tgan asrning 20-30 yillariga qadar o‘troqlashgan va dastlab qora uylarda istiqomat qilishgan¹⁰. Doimiy tipdagi uylarda yashashga o‘tganlari ham, odatda, bir xonali, ba’zi hollarda ikki xonali uylarda yashagan.

⁹ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chortoq tumani Guldirov qishlog‘i. 2015 yil.

¹⁰ Qarang: Этнографические очерки узбекского сельского населения. – М., 1969. – С. 127–128.

Qashqadaryo va Surxondaryoning ko‘plab qishloqlarida uylar ayvonsiz, Farg‘ona vodiysida esa ayvonli uylar qurilgan. Bu esa o‘troq aholining ta’siri oqibatida edi. Janubiy viloyatlarda uylarning oldida tuproqdan ko‘tarib supa qilishgan, bu iliq ob-havo sharoitiga juda mos bo‘lgan, qish va ko‘klam oylari qor va yomg‘ir suvlarining uyning oldida to‘planmasligini ta’milagan¹¹.

Farg‘ona vodiysida o‘troq turmush tarziga o‘tgan qipchoq, qurama va turklarning tog‘ oldi tumanlarida joylashgan alohida-alohida, tarqoq ko‘rinishdagi qishloqlari ham o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan. Bunday qishloqlardagi har bir hovli bir-biridan 100-200 m, ba’zan undan ham uzoq masofada joylashgan bo‘lib, boshqa qishloqlarga nisbatan katta hududni egallagan. Har bir hovli paxsa devor bilan o‘ralgan. Bundan tashqari, hovli atrofini o‘rab olish uchun daraxt shoxlari yoki «changallar» ham ishlatilgan¹². Ularda hovli atrofini devor bilan to‘sish hovlini (oiladagi ayollarni) begona kishilarning nazari tushishidan to‘sish emas, balki hovliga chorva hayvonlarini kirib ketmasligining oldini olish maqsadida qurilgan. Shuning uchun ko‘p hollarda hovlining faqat ko‘cha tomoni to‘silgan, xolos.

Farg‘ona vodiysining tog‘ zonasidagi manzilgohlar vaqtinchalik (yozlik) bo‘lib, asosan, o‘z chorvasini boqayotgan u yoki bu urug‘ vakillariga tegishli qora uylardan tashkil topgan ovullarga xos turarjoylar edi. Vodiyda har bir ovul jamoasi o‘zining yaylov yerlariga ega bo‘lib, har yozda mana shu yaylovga kelgan. Yaylov yerkari, buloq va quduq kabi suv manbalari ovul jamoasining umumiyligi mulki hisoblangan, chorva hayvonlari, qora uy va ekinzorlar har bir oilaning xususiy mulki bo‘lgan¹³.

Farg‘ona vodiysining yarim o‘troq aholi yashovchi tog‘oldi hududlarida o‘troq aholiniki kabi zich qishloqlar kam tarqalgan bo‘lib, asosan, bir biridan alohida-alohida qurilgan atrofi baland paxsa devorlar bilan to‘silgan qo‘rg‘onchalaridan iborat bo‘lgan. Qo‘rg‘onchalar yarim o‘troq aholining o‘troqlashishi jarayonida tashkil topgan doimiy turarjoylaridir. Bunday manzilgohlar aslida yarim ko‘chmanchi aholining ma'lum bir urug‘ yoki urug‘ bo‘linmasiga tegishli qishlov

¹¹ Qarang: Алимова Д. А., Аширов А. А. Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар.. – Б. 75.

¹² Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа... – С. 219–220.

¹³ Абрамзон С. М. Очерк культуры киргизского народа. Изд. Киргизского филиала АН СССР. Фрунзе, 1946. – С. 32–33.

makonlari o‘rnida tarkib topgan bo‘lib, ular asoschilari nomi bilan atalgan. Taniqli etnograf K. Shoniyofov bunday turarjoylarni vodiy hududida XVIII asr oxirlaridan paydo bo‘la boshlagan, deb e’tirof etgan¹⁴.

Er-xotin Nalivkinlar Farg‘ona vodiysidagi qirg‘iz, qipchoq, qurama va qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarda qishloqlar nisbatan kam uchrashi, ular o‘rnini atrofi baland paxsa devorlar bilan o‘rab olingan ana shunday alohida-alohida qo‘rg‘onchalar egallashini yozgan¹⁵. Qo‘rg‘oncha ichida uy-joy va xo‘jalik binolari qurilgan bo‘lib, u bilan birga “qora uy” ham tiklangan. Oila a’zolari qishin-yozin “qora uy”da yashagan. Yozda o‘tovlar toqqa, ya’ni yozgi yaylovlarga ko‘chirilgan. XIX asr ikkinchi yarmidan e’tiboran yarim o‘troq aholining tobora o‘troqlashuvi jarayonida qo‘rg‘onchalar atrofida alohida paxsa uylar va xo‘jalik imoratlari paydo bo‘la boshlagan. Shu asr oxiriga borib, ularning soni yanada ortib borgan va XX asrning boshlaridan turar-joylarni devor bilan o‘rab olish an'anasi yo‘qola boshlagan. Doimiy uy-joylarning paydo bo‘lishi natijasida yozgi yaylovlarga faqat ko‘plab chorva hayvonlariga ega oilalargina jo‘nab ketadigan bo‘lganlar.

D. Nozilovning ta’kidlashicha, Hisor va Boysun tog‘ arxitekturasida ko‘pincha sinch devor qo‘llanilgan va buni yer qimirlash balining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlaydi¹⁶. Boysun va Hisor tog‘larining ustki qismi o‘rmonzorlardan iborat bo‘lganligi uchun ham sinch keng qo‘llanilgan. Tog‘liklar uyning shamol esadigan va sel keladigan tomoniga tosh devor yoki qo‘shsinchli devor qurishgan.

Yarim o‘troq aholining o‘troq aholi bilan etnomadaniy aloqalari nafaqat qora uylardan doimiy tipdagi uylarga o‘tilishida, balki ularning tuzilishi, qurilish materiallari va texnikasida ham o‘z aksini topdi. Farg‘ona vodiysi uchun XIX asrning ikkinchi yarmida sinchli uylar (yakkasinch, qo‘shsinch) xos bo‘lib, yog‘och tanqisligi bois, bunday uylar kambag‘al oilalarda keng tarqalmagan. Ko‘pchilik aholi paxsa uy, guvala yoki chim devorli uylarda yashagan. Beshariq tumanining quruq va sho‘rxok yerlarida o‘troqlashgan yuz va quramalar chim

¹⁴ Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа... – С. 218.

¹⁵ Наливкин В. П., Наливкина Н. Очерки быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – С. 6.

¹⁶ Нозилов Д. А. Тор мейморлари. – Тошкент, 1979. – Б. 34.

devorli uylarda yashagan. Quva tumanida o‘troqlashgan turklar esa guvala uylarda istiqomat qilishgan.

Qishloqlarda bo‘lgani kabi uy-joylarda ham o‘troq dehqon va yarim o‘troq chorvadorlarga xos jihatlar ko‘zga tashlanadi¹⁷. Bu jihat birinchi navbatda uy-joylar turlarida kuzatiladi. Chunonchi o‘troq aholi, asosan, doimiy turdag'i ko‘chmas uy-joylarda yashagan. Yarim o‘troq etnik guruhlar esa chorvachilik bilan shug‘ullanganliklari va doimo bir joydan boshqa bir joyga ko‘chib yurishgani bois, ko‘chirib yuriladigan ko‘chma uylarda yashaganlar.

O‘zbekiston xalqlarining an'anaviy turar-joylari (shakli, qurilish materiallari konstruksiyasi, planirovkasi), turarjoy majmuasining u yoki bu qismini funksional ahamiyati kabi hususiyatlarga ko‘ra bir necha turlarga bo‘lingan. Shu bois, tadqi-qotchilar O‘zbekistonda bir-biridan o‘ziga xos qator jihatlari bilan ajralib turuvchi Buxoro, Shahrisabz va Farg‘ona turarjoy me'morchiligi uslublarini belgilashgan.

Farg‘ona vodisida uylarda xona ichini ko‘rkam bo‘lishi va ko‘rpa-to‘shak hamda idish-tovoqlarni tartibli joylashtirish, uy ichini saranjom sarishta saqlash maqsadida ichki devorlarga tokcha qurilgan. Boy oilalarning uyida kichik tokchalar bir nechta bo‘laklarga ajratilgan. U aholi orasida rezaktokcha (vodiylar qipchoqlarida esa rezatokcha¹⁸) deb atalib, unga choynak-piyola, kosa-tovoq va ro‘zg‘or uchun zarur bo‘ladigan boshqa idish-tovoqlarning har biri alohida bo‘linmalarga terib qo‘yilgan.

O‘troq o‘zbeklarning uy-joylarida ko‘rpa-to‘shak va sandiqlarni qulay joylashtirish uchun xonaning yuqori, to‘ri devoriga ikkita taxmon va uning o‘rtasiga mehrob ishlangan. Taxmon tokcha mehrobga nisbatan keng va katta bo‘lib, unga sandiq qo‘yilgan, ustiga ko‘rpa-to‘shak taxlangan. Mehrob esa, odatda, mayda tokchalarga taqsimlangan hamda tokchaband qilingan. Taxmondagi ko‘rpa-to‘shaklarning usti, odatda, naqshli so‘zanalar bilan yopib qo‘yilgan. Bunday taxmonlar uy ichini ozoda, saranjom va xona to‘rini tantanavor tarzda ko‘rsatadi. Mehrob va taxmon tokchalar oddiy (dehqon) o‘zbek oilalarida so‘zana bilan, boy

¹⁷ Qarang: Андрианов Б. В., Чебоксаров Н. Н. Историко-этнографические области. Проблемы историко-этнографического районирования // СЭ. – 1975. – №5. – С. 15.

¹⁸ Qarang: Алимова Д. А., Аширов А. А. Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар... – Б. 79.

xonadonlarda gilam, vodiylik o‘troq qirg‘izlarda esa to‘shkiy giz bilan yopilgan. Farg‘ona vodiysida uylarning eshikdan kirganda o‘ng tomondagi devorida mo‘ri-o‘choq qurilgan.

O‘zbekistonning nafaqat biz o‘rganayotgan hududlarida, balki, barcha viloyatlarida ham eng ko‘p uchraydigan ikki xonali uylar - bu “chuqur ayvonli uy”lardir. “Chuqur ayvon”, odatda, har ikkala xona o‘rtasida joylashgan bo‘lib, xonalarga kirish vazifasini o‘tagan. Bunday uylar xurjunni eslatgani uchun aholi orasida «xurjun uy» deyilgan. “Chuqur ayvon” har uch tomonidan devor bilan to‘silgan, faqat oldi tomonigina ochiq bo‘lgan. Bunday variantdagi uylarda o‘choq-mo‘ri chuqur ayvonning orqa devorida joylashgan va shu yerda issiq ovqat tayyorlangan¹⁹.

O‘zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlarida ham “chuqur ayvonli” uylarda ayvonning ustiga ikkinchi qavatda bolaxona, mehmonxona tarzida qurilgan. Bu, ayniqsa aholi zinch joylashgan Farg‘ona vodiysida, asosan, shaharlarda (Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon) hovlidagi joyni tejash imkonini bersa, aksincha janubiy viloyatlarda ikkinchi qavatdagi xona shamollatishga ancha qulay bo‘lgan²⁰.

Farg‘ona vodiysida ikki xonali uylarga old ayvon qurish qat’iy qoida hisoblangan. Peshayvonli uylarning old tomonini janubga qaratib qurish usuli vodiy me’morchiligining hudud iqlimi bilan uyg‘unlashgan o‘ziga xos an'analaridan biridir. Arxitektor olma V. Voronina huddi ana shunday planirovka vodiy uylarini ham yozda, ham qishda qulay bo‘lishini ta'min etgan²¹, deb yozadi.

Etnolog U. Abdullayevning ta‘kidlashicha, Sharqiy Turkiston aholisini O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, Farg‘ona vodiysi aholisi bilan uzoq asrlik o‘zaro iqtisodiy-madaniy aloqalari natijasida har ikkala mintaqada yashovchi xalqlarning uyjoylarni tiklash va uni jihozlashlarida ko‘plab o‘xshashlik hamda umumiylilik shakllanib borgan²².

¹⁹ Шаниязов К. Ш., Исмаилов Х. Этнографические очерки материальной культуры узбеков... – С. 34

²⁰ Воронина В. Л. Узбекской народное жилище... – С. 45.

²¹ Yuqoridagi asar.... – Б. 46.

²² Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент, 2005. – Б. 84.

Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan uyg‘urlardan mahalliy aholi me’morchilik san’atidagi «qashqarcha» elementlarni o‘zlashtirgan. Ulardan biri, “qashqarcha mo‘ri-o‘choq” hisoblashib, uning uchburchak shaklidagi old devorchasi usti tekis yopilib, ochiq qismi oddiy ravoq ko‘rinishga ega bo‘lgan²³. Shuningdek, “qashqarcha ayvon” ko‘tarma deraza, panjaralar bilan o‘ralgan ayvon ham Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasida keng tarqalgan²⁴. Shubhasiz, vodiy o‘zbeklaridan uyg‘ular ham me’morchilik madaniyatining ayrim xususiyatlarini o‘zlashtirgan. Masalan, Sharqiy Turkistonda yashagan uyg‘ular uchun hovlini «ichkari» va «tashqari» qismlarga bo‘lish odatlari bo‘lmagan. Biroq xonlikdagi o‘zbek va tojiklar bilan yashay boshlagan ba’zi bir uyg‘ular o‘z xonadonlarida «ichkari» va «tashqari» xonalar qurbanlarki, bu albatta, qo‘qonliklarning ta’siri edi²⁵. Sharqiy Turkiston, xususan, Qashqarda yashovchi ko‘plab uyg‘ular Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘troq aholi kabi uylarini isitishda mo‘ri-o‘choqdan foydalanganlar va bunday mo‘ri o‘choqlar o‘zining tuzilishi jihatidan deyarli o‘xhash bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysining barcha hududlarida aholining o‘troqlashishi va doimiy turar-joylarda yashay boshlashi bir xilda kechmagan. Masalan, vodiyning o‘troq aholisi yashash manzillariga yaqin madaniy vohalarda chorvador aholi o‘rgani layotgan davrdan oldinroq, XVII-XVIII asrlardan boshlab o‘troqlasha boshlaganlar va ularda shu davrlardan boshlab bir xonali uylar qurila boshlagan²⁶. Vodiyning chekka va tog‘ qishloqlarida esa chorvador aholi, asosan, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlab, to XX asr o‘rtalariga qadar o‘troqlashgan²⁷.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlarida yashovchi aholi hayotining barcha sohalarida bo‘lgani singari Buyuk Ipak yo‘lining ta’siri tufayli O‘rta Osiyo aholisining turar-joylari taraqqiyo-

²³ Писарчик А. К. Традиционные способы отопления жилищ оседлого населения Средней Азии в XIX – XX вв / Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1982. – С. 88.

²⁴ Ахмедов М. К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Тошкент, 1995. – Б. 85.

²⁵ Qarang: Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иктисадий ва маданий алокалар (XVIII–XIX асрнинг ўрталари). Тарих фан. ном. илмий дар. олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2009. – Б. 24–25.

²⁶ Шониёзов К. Ш. К этнической истории... – С. 238.

²⁷ Dala yozuvlari Namangan viloyati Chortoq tumani Мучум qishlog’i. 2015 yil.

tiga ham etnik jarayonlar o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu jarayon ayniqsa Farg‘ona vodiysida jadal suratlar bilan kechgan. Buning boisi vodiyya aholining zinch joylashganligi, janubiy viloyatlarga nisbatan Farg‘ona vodiysida yarim ko‘chmanchi etnik guruhlarning o‘troqlashishi jadal kechganligidir. Qolaversa, ushbu ikki o‘lka aholisining xo‘jalik-madaniy tiplarining ham turar-joylarga ta’siri katta bo‘lgan. Buni biz janubiy o‘lkalar aholisining asosiy o‘rganilayotgan davrda turarjoylari o‘tovlar bo‘lganligini va bu jihat ularning xo‘jaligida chorvachilik muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatsa, aksincha Farg‘ona vodiysidagi uylarning aksariyati doimiy uylar edi.

1.2. O‘zbek xalqi milliy kiyimlari transformatsiyasida Buyuk Ipak yo‘lining tutgan o‘rni

Ma'lumki, Sharq va G‘arb xalqlarining hayotida muhim o‘rin tutgan mintaqaviy hamda xalqaro ahamiyatga molik savdo yo‘llari tizimi – «Buyuk ipak yo‘li» mil. avv. III–II ming yilliklardan faoliyat boshlagani tahmin qilinadi. Ammo bu yo‘l mil. avv. 138 yildagina Chjan Szyan tomonidan Xitoy uchun kashf etilgan²⁸. Xitoylar O‘rta Osiyon o‘rganishni aynan Farg‘ona vodiysidan boshlagan edi. Qolaversa, O‘rta Osiyo xalqlarini Xitoy bilan aloqa qilishlari uchun Farg‘ona vodiysining tog‘li davonlari muhim o‘rin tutgan. O‘rtaosiyoliklar mil. avv. IV–III asrlardayoq davon va «dasht yo‘li» orqali Xitoy chegaralarga chiqqanlar. Mil. avv. I ming yillik o‘rtalaridan to mil. I ming yillikkacha ular, sug‘diylar rahnamoligida²⁹ Amudaryodan to Gansuning Xesi yo‘lagigacha yetakchilik qilganlar.

Bu davrda, ya’ni antik davr (I–IV asrlar)dan «Buyuk ipak yo‘li» Rim, Parfiya, Kushon va Xan davlatlari o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy manfaatlar kurashi maydoniga aylangan edi. Ilk o‘rta asrlar (V–VIII asr birinchi yarmi)da esa «Ipak yo‘li» uchun Xitoy, Eron, Vizantiya va Turk xoqonligi o‘rtasida raqobat kuchaydi. Ayni shu paytda mahalliy davlatlarning vakillari turk xoqonlari panohida Vizantiyadan Koreya va Yaponiyagacha, Tibetdan Shri-Lankagacha quruqlik va

²⁸ Ртвеладзе Э. В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005. – С. 196. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 8–31.

²⁹ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 66–70.

dengiz yo'llari orqali o'z mahsulotlarini yetkazishga erishdilar. Chunki tashqi bozorda aholisi asosan o'troq bo'lgan O'rta Osiyo xalqlarining qishloq xo'jalik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlariga talab katta edi. Xitoy manbalarida bu yurtlardan bog'dorchilik (shaftoli va gilos), uzumchilik (mayiz) mahsulotlari, zotdor otlari va qo'yłari Xitoya eksport qilingani³⁰ haqida ma'lumot bor. Hatto ipakchilikda sohasida o'rtaosiyoliklar Xitoy bilan raqobatlasha boshlaganlar³¹.

Farg'ona vodiysi juda qadimgi davrlardan boshlab ipakchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Ammo, ipakdan qilingan matoning bizgacha yetib kelishi qiyin bo'lganligi uchun bu matoning kelib chiqqan vaqt va joyi to'g'risida faqat turlicha taxminlar yurar edi. Shuning uchun «O'rta Osiyoning katta hududlarida, shu jumladan Farg'ona vodiysida ham aholi ko'proq paxtadan to'qilgan matolardan kiyimlar kiyganlar», degan fikr keng tarqalgan edi. Chunki, o'tgan asrning 60-70 yillarida ye. D. Saltovskaya Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismidagi arxeologik qazishmalar o'tkazish chog'ida milodning birinchi asrlarga oid qatlamlardan paxtaning chigitini topgan edi³². Bu narsa albatta juda muhim bo'lib, Farg'ona vodiysining aholisi milodni birinchi asrlaridan boshlab bevosita paxta ekib, uning hosilidan turli matolar tayyorlashni bilishganligini isbotlaydigan muhim dalilni topgan edi.

Eng qadimgi matolar to'g'risida biz faqat arxeologik materiallardan bilishimiz mumkin, ya'ni matolarning qanday ekanligini kulolchilik buyumlariga yopishib qolgan izlardan bilib olishimiz mumkin. Chunki, eng qadimgi kulolchilik buyumlarini kulolchilik charxida emas, balki qo'lda tayyorlashgan. Dastlab qum to'ldirilgan matoning atrofiga loy yopishtirilib, tayyorlangan idish oftobda quritilgan. Shundan keyin qum to'kib tashlanib, mato ham qurigan idishdan ajratilgan. Sopol buyumlarining ko'proq ichki yuzasida qadimgi matolarning izlari qolgan. Eng qadimgi idishlarda qolgan izlarga qaraganda ular juda qo'pol, ko'proq jundan,

³⁰ Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах... – С. 281.

³¹ Колганов А. П. К истории шелка в Средней Азии (по китайским источникам) // Исследования по истории, истории науки и культуры народов Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 110–111.

³² Сальтовская Е. Д. Северо-западная Фергана в древности и раннем средневековье. – Душанбе, 1971. – С. 141.

turli o'simliklarning poyalaridan, paxtadan, to'qilganligi ko'rinib turibdi³³. Huddi shunday matolarning izlari saqlanib qolgan sopol idishlarining parchalari Qashqadaryoning so'nggi bronza davriga oid Chimqo'rg'on suv ombori zonasidan³⁴, shuningdek Farg'ona vodiysi arxeologik obidalarining qadimgi davr qatlamlaridan ham ko'plab topilgan³⁵. Shunday ekan, O'rta Osiyo hududida, shu jumladan Farg'ona vodiysida paxta to'qimachilikning eng asosiy manbai-xom ashyosi ekanligini ko'rsatib turgan dalil hisoblanadi. Shuning uchun paxtadan turli matolar tayyorlanib, undan turli kiyimlar tikishganliklari ko'rinib turibdi. Lekin paxtadan tashqari kanop, jun va ipakdan ham turli matolar ham to'qilgan.

Albatta, paxta mahsulotining chigit bo'lganligi uchun ham uning tolasi chirib yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, ammo chigitining o'zi ko'p hollarda saqlanib qolgan. Shuning uchun bir qancha arxeologik yodgorliklarda paxtaning chigit qolganligini bilamiz.

Ammo ipak mahsuloti to'g'risida gap ketganda ahvolning mutlaqo boshqacha ekanligini ko'rish mumkin. Chunki, ipakning tolasi loydan, tuproqdan bo'lgan arxitektura obidalarida qolgan bo'lsa, ular ko'p hollarda chirib yo'q bo'lib ketadi. Lekin, baxtli tasodiflar tufayli O'rta Osiyoning turli hududlarida, ko'p hollarda qabrlarda saqlanib qolgan. Ayniqsa ipakchilikni rivojlanishini aksariyat olimlar Buyuk ipak yo'li tufayli, Xitoydan boshqa mamlakatlarga tarqalganligi va bu savdo yo'lida sug'diyalar vositachilik qilganliklari to'g'risida fikr bildiradilar³⁶.

Kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi sohasidir. Qolaversa, o'zbek an'anaviy kiyimlari tarix bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, u moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajratib turadi.

Kiyimlar xalq madaniyatining boshqa ko'rinishlari singari uning turmush tarzi, estetik didi va milliy o'zligining ko'zgusi bo'lishi bilan bir qatorda

³³ Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. Вып.118. – Москва-Ленинград, 1962. – С. 87.

³⁴ Исамиддинов М. Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Ташкент: Из-во им. А.Кадыри, 2000. – С. 33..

³⁵ Абдулгазиева Б. О ткачестве древней Фергане // Материалы республиканской научно-практической конференции «Великий шелковый путь и Ферганская долина». – Ташкент, 2004. – С. 44-48.

³⁶ Ртвеладзе Э. В. Великий шелковый путь. – Ташкент, 1999. – С. 14.

etnogenez, etnik tarix va madaniyat tarixini o'rganishda ham muhim manbalardan biri hisoblanadi³⁷. Bichish asoslari, shakl va turlari azaldan bir xil bo'lgan o'zbeklarning kiyim-kechaklari odamlarning yoshi, ijtimoiy ahvoliga qarab ularning rangi, matosi, ayrim tarkibiy qismlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Kiyimlarda biron-bir elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida o'zgarishlar bo'lib turishi bilan bir vaqtda kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib o'zbek milliy kiyimlari shakllandı, shahar va qishlokdarda bir nusxadagi to'n, ko'ylak yaktak, lozim, do'ppi, salsa, telpak, kovush mahsi, etik, choriq turli yordamchi kiyimlar kiyiladigan bo'ldi. Ammo bu umumiylidän tashqari har bir joyning o'zigagina xos mahalliy sharoitga, xalqning azaliy ko'nikmalariga mos keladigan kiyim-kechaklari ham bo'lgan.

O'zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysi aholisi kiyimlarining shakllanish va qiyosiy tahliliga o'tadigan bo'lsak, bevosita o'zbek an'anaviy kiyimlariga borib taqaladi. Chunki kiyimlar boshqa xalqlar hududlararo etnoslar bilan o'zaro etnomadaniy aloqalari jihatidan ham xabar beradi. Shu bilan birga kiyimlar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, boshqa xalqlar kiyimlaridan o'zaro ta'sir, singib borish jarayonlari sezilib turadi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek xalqi o'z an'anaviy kiyim-kechaklarida moddiy madaniyati, turmush tarzidagi milliy, etnik xususiyatlarni saqlab qolgan. Asosan, kiyimlar ayollar, erkaklar va bolalarning bayram, kundalik marosim to'y, dafn va ish kiyimlariga bo'linib, ularning ijtimoiy holatidan kelib chiqadi. Bundan tashqari kiyimlar iqlim, yashash joyiga ham bog'liq bo'ladi. Mahalliy sharoitda yashovchi etnik guruhlarning umumiyl xarakterdagi kiyimlari mavjudligi, ularning tarixiy taqdirlari va madaniyatları uzoq davr mobaynida shakllangan.

³⁷ Шаниязов К., Исмаилов Х. Этнографический очерки материальной культуры узбеков.. – С. 67.

Shu bilan birga o'sha yerda yashovchi xalqlarning turmush tarzi xo'jalik faoliyati, urug'-qabila an'analarini iqlim sharoiti ham kiyimlar orqali belgilanadi. Shuning uchun ham mazkur mintaqalarda yashovchi aholi kiyim-kechakka o'z didlari, estetik ideallarini ifoda etganki, bu esa o'z navbatida ularni farqlashda ajralib turadi. Aslini olganda o'zbek milliy kiyimlari shakllanishi, rivojlanish yo'li, ulardag'i o'ziga xos etnik va lokal xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlarida istiqomat qiluvchi xalqlar qadimdan dehqonchilik, chorvachilik, ipakchilik rivojlana borgan sari jun, paxta, kabi madaniy tolalar, uy hayvonlari juni, terisi, mo'ynasidan kiyimlar tikib kiyaganliklarini ham taqqoslash mumkin.

Umuman olganda, O'rta Osiyoda jun va teridan xalq iste'moli mollari, xususan kiyim-kechak tayyorlash an'anasi Farg'ona vodiysi chorvador xalqlari orasida kuchli seziladi. Chunki jundan mato tayyorlash usuli o'ziga xos tarzda amalga oshirilganki, uni ip holiga keltirish bir xil usulda amalga oshirilgan. Junni qo'lida titib, mayinlashtirib, urchuq yordamida yigirib kalava holatiga keltirilgan va undan xalq iste'moli mollari tayyorlangan.

Etnograf olim U. S. Abdullayev yozishicha, jun va teridan xalq iste'moli mollari, xususan, kiyim-kechak tayyorlash an'anasi O'rta Osiyoning, jumladan, vodiyning chorvador xalqlari orasida ham kuchli edi³⁸. Chunonchi, xo'jalik faoliyati chorvachilikka ixtisoslashgan qirg'iz, qoraqalpoq, qipchoq, ming, yuz, qurama, arab, turk kabi etnik jamoa vakillari bu davrda jundan chakmon, gilam, palos xurjun, halta kabi ko'plab buyumlar tayyorlaganlar. Bunda echki tiviti, tuya va qo'y junlari mato tayyorlashdagi asosiy xom ashyo hisoblangan.

Xalq kiyimlari ko'p millatli va lokal formada bo'lishi bilan birga turli xalqlarda emas, balki har bir xalq ichidagi turli etnik guruhlarda ham farq qiladi³⁹.

Birgina O'zbekistonning janubiy vohalari bilan Farg'ona vodiysi aholisi kiyimlarini o'zaro taqqoslaydigan bo'lsak, kiyimlar tuzilishida o'zaro umumiyliliklar sezilsada, kiyim uslubi, tikilishida ham bir qator farqlar seziladi. Bu, albatta,

³⁸ Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар... – Б. 103.

³⁹ Сухарева О. А. История среднеазиатского кастюма Самарканд II-я половина XIX – начало XX века. – М.: Наука, 1982. – С. 5.

aholining turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, madaniy an'analarida iqlim sharoiti ta'siri bo‘lib, taraqqiyot davomida shakllanib, o‘zgarib, bir-biriga singib boradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda kiyim-kechak uchun ishlatilgan matolar ko‘proq uy sharoitida tayyorlanib, tadqiqot olib borayotgan hududlarda turlicha bo‘lgan. Vaholanki, o‘sha paytda Rossiyadan keltirilayotgan fabrika matolari qimmat bo‘lib, ular o‘lkaning hamma joyida ham bir xil tarqa-tilmas edi. O‘zbekistonda uy sharoitida ip, jun, pilla, teri va boshqa mahsulotlardan mato tayyorlash juda qadimdan mavjud bo‘lib, ular asosan Farg‘ona vodiysida, Marg‘ilon, Namangan, Qo‘qonda, janubiy viloyatlarning Boysun, Qarshi, Kitob, Shahrisabz shaharlarida matolar ishlab chiqarish taraqqiy qilgan edi. Bu jarayon, asosan, aholining turmush tarziga bog‘liq bo‘lib, dehqonchilikka ixtisoslangan yerlarda ip-gazlama matolar, chorvachilikka ixtisoslashgan ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq aholi orasida esa ko‘proq jun, teridan kiyim-kechaklar iste'molda bo‘lgan.

O‘z o‘rnida shuni ham aytish kerakki, uy sharoitida ip-gazlama, ipakli va yarim ipakli (nimshoyi) hamda jun va teridan matolarni tayyorlash jarayoni joylarda turlicha bo‘lgani uchun bu jarayonlar haqida tadqiqotchilar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar⁴⁰.

XIX asr oxirlariga kelib kiyimlar qadimgi xususiyatlarini saqlab qoldi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlari va Farg‘ona vodiysisidagi aholi kiyadigan kiyimlarda umumiy o‘zbek kiyimlari shakliga yaqinlashish jarayoni kuchliliginini kuzatish mumkin. Farg‘onada ko‘plab, xilma-xil gulli matolar to‘qilgan. Bunday matolarning rang-barang gulli bo‘lishiga, gullarning bir-biriga mos-uyg‘un kelishi-ga, shuningdek, yo‘l-yo‘llarining orasi kengroq bo‘yalishga ham ahamiyat berylgan. Yashil tusli yo‘l-yo‘l gullar, sariq, gulgun va siyohrang gullar bilan uyg‘un ravishda almashinib keladigan beqasam, ipak va nimshoyi gazmollar juda qadr-

⁴⁰ Qarang: Сухарева О. А. Художественные ткани / Народное декоративное искусство Советского Узбекистана. – Ташкент, 1954. – С. 17–37; Кармышева Б. Х. Качество и предение у народов южных районов. Таджикистана и Узбекистана (XIX – начало XX в) / Проблемы типологии и этнографии. – М., 1979. – С. 258.

langan. Bu jarayonlar yirik shaharlarga yaqin joylarda hamda savdo, hunarmand-chilik taraqqiy qilgan qishloqlarda tezroq, uzoq chekka qishloqlarda sust borgan⁴¹.

Erkaklar milliy kiyimi tarkibiga ko‘ra ichki (ichdan kiyiladigan) va ustki kiyimlarga bo‘linadi. O‘tmishda erkaklar uchun maxsus ichki kiyim tikilmagan. Kuz va qish fasllarida erkaklar yozgi yengil kiyimlari ustidan qalinq matodan tikilgan to‘n, shim, chakmon, po‘stin va boshqa ustki kiyimlar kiyishgan. Erkaklar ko‘ylagi, asosan, bir xil tusdagi oq matodan tikilib, bu mato kosib dastgohida to‘qilgan. Ko‘ylaklar bichimiga ko‘ra uzun bo‘lib, eni buzilmagan bir mato yarmidan bir-biriga uzunasiga ulab tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengayib borgan. Erkaklar ko‘ylagi uzun tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmisiga tushadigan qilib tikilgan. Yoqasi ikki xil andazaga binoan belgilangan. Farg‘ona vodiysida uzun, tik yirmoch qiyiq joyi uzunroq mato bo‘lagidan bichilib, burchakma-burchak qilib, ikki qiyiq kesilgan hamda uchlari keng olinib tikilgan. Farg‘ona vodiysida bu ko‘ylaklarni «mullavachcha» ko‘ylak deb atashgan.

Ba'zan bu ko‘ylak yoqasining chetlariga jiyak ham tikilgan. Bunday ko‘ylaklarni Toshkent, Zarafshon, Buxoro, Xorazmda giz bilan birga Farg‘ona vodiysida Qashqadaryo, Surxandaryo vohalarida esa ko‘proq yoqasi yotiq ko‘ylaklarni kiyishgan. Bu ko‘ylaklarning yenglari uzun, yonida qo‘srimcha qiyig‘i bo‘lib, yoqasi bog‘ich bilan bog‘langan. Shuning uchun ham bu ko‘ylak «bog‘ichi» deb atalgan.

Umuman olganda, vodiy va Janubiy mintaqalarda erkaklar kiyimi o‘rtasi-dagi farqlar sezilsada, umumiylit ko‘proq. Negaki, bu bir-biriga tutash hududlarda yashovchi etnik guruhlarning o‘zaro doimiy iqtisodiy, etnomadaniy aloqalari ta'sirida rivojlanganligi, madaniyatning aralashib, bir-birining tarkibiga singib ketishi natijasidir. Qolaversa, har bir viloyatdagi aholi kiyimlarining o‘ziga xosligi va umumiyligi, ularni ishlab chiqarish jarayonlari ham bir xil bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, janubiy viloyatlarda erkaklar kiyimlarining shakllanishida an'anaviy xo‘jalik mashg‘ulotlari, tabiiy iqlim sharoiti ta'siri sezilib turadi. Bunga

⁴¹ Исломов Х. Анъанавий ўзбек кийимлари... – Б. 17.

misol qilib, Surxondaryo vohasining tog‘, tog‘ oldi va dashtli hududlarida yashovchi aholining o‘ziga xos kiyimlarini aytib o‘tish mumkin.

Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida oldi ochiq yaktak ko‘ylaklar kiyish odad tusini olgan. Ular chit, bo‘z, ipak ip gazlama matolardan tikilib, yoshlar ham, qariyalar ham birdek yoqtirishgan. yengil kiyishga qulay yaktakning etagi tizzagacha va tizzadan ham pastroqda tushib turar, yoqasi uzunasiga ilmoq bilan yonma-yon qilib qavilib, ko‘krak qismiga bir dona tugmacha yoki qo‘lbola ipak, ko‘pgina o‘z matosidan ingichka bog‘ich o‘tkazib qo‘yilardi.

O‘zbek xalqi etnografiyasini bilimdoni akademik K.Shoniyofovning yozishicha, Farg‘ona vodiysidagi qipchoqlar mahalliy o‘troq aholidan bir necha nusxadan, jumladan, yoqasi tik ko‘ylak nusxalarini o‘zlashtirganlar⁴². Shu bilan birga Farg‘ona vodiysida yoqasi tik andozadagi ko‘ylaklar ichida «burma ko‘ylak» nomli ko‘ylaklar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida keng tarqalgan bo‘lsa, XX asrning 20-30- yillarda esa «bo‘g‘moki», «bo‘g‘ma» yoqali ko‘ylakni kiyish rasm bo‘lgan.

Erkaklarning qadimi kiyimlaridan biri - to‘ndir. To‘n keng ma’noda, chopon esa aksar paxtali ma’nosida yuritilgan. Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘zbek quramalari shevasida paxtalik choponni cho‘kit deb nomlaydilar.

To‘nlar Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida uzun va keng bo‘lib, yo‘l-yo‘l matolardan, Farg‘ona vodiysida odmiroq matolardan, xususan ko‘kish, zangori ko‘k, pushti-ko‘kish, qora va boshqa matolardan tikilgan va qalin paxtali to‘nlar yupqa paxtalisi ustidan kiyilgan.

Paxtasiz to‘nlar «avra to‘n», «avrachopon» deb atalgan. Qashqadaryo, Surxondaryo vohalarida «jegde» nomi bilan yuritilgan. Paxtali to‘n ustidan avra to‘n kiyib yurish kishiga ko‘rk, salobat baxsh etgan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab O‘zbekistonda tatarlar kamzulini kiyish rasm bo‘la boshlaydi⁴³.

An'anaviy ustki kiyimlardan yana biri - chakmondir. Chakmonning boqoti, bosma, qoqma, tivitli, silkma kabi xillari bo‘lgan. Shuningdek, chakmonlar

⁴² Шониёзов К. Ш. К этнической истории узбекского народа... – С. 253.

⁴³ Шониёзов К. Ш. К этнической истории узбекского народа... – С. 261.

ranglariga qarab turlicha atalgan: ko‘k chakmon, malla chakmon, oq chakmon-lardir. Ular, asosan, astarsiz, faqat avradan iborat bo‘lib, shakli to‘nga o‘xshagan. Chakmon yoqasiga, yeng uchlari va etaklariga qora, ko‘kish, pushti va jigarrang matolardan jiyak tikilgan, adip qo‘yilgan. Chakmon uzun va keng tikilib, to‘n ustidan kiyilgan. Uning ustidan belbog‘ bog‘langan. Chakmonning chiroyli bo‘lishi uchun ularning yeng uchlari, yoqalari, etaklariga turli rangdagi ipaklardan to‘qilgan ingichka jiyaklar qadalgan.

Chorvadorlar kiygan qadimiy kiyim hisoblanmish kebanakning ham ustki qismi sholdan, ichi esa kigizdan, uzun, keng qilib tikilgan. Erkaklarning yana bir kiyimi po‘stin bo‘lib, u qo‘y, tulki, suvsar va boshqa hayvon terilaridan tikilgan. Po‘stin XIV-XV asrlardan boshlab po‘stin termini bilan- atala boshlagan. Po‘stinlar turli xil bo‘lgan: «barra po‘stin», «suvsar po‘stin» va h.k.

Erkaklarga xos kiyim-kechaklar elementi belbog‘ ham o‘zbek va tojik xalqari tomonidan e’zozlanib kelingan. U kishiga kiyimlarning badanga yopishib turishini ta’minlovchi, qaddi-qomatini to‘g‘ri tutuvchi, ixcham va xushbichim bo‘lishini ta’minlovchi vositadir. «Belida balbog‘i bor» degan so‘z ham bejiz emas.

Belbog‘lar chit, satin, bo‘z va boshqa matolardan tikilgan. shuningdek, to‘qima (fo‘ta, matri va madali belbog‘lar) o‘rama va charmdan qilingan belbog‘lar ham bo‘lgan. To‘rt tomoni kashtalangan bezakli belbog‘lar qiyiq deb atalgan. Belbog‘lar turlicha bo‘lgani kabi ularni bog‘lash usullari ham turlicha bo‘lgan. Farg‘ona vodiysida bir necha belbog‘ ustma-ust qilib, bog‘langan. Bunda avval uzun, o‘rama belbog‘lar, ularning ustidan yana bir necha qiyshiq va oddiy belbog‘lar bog‘langan.

Mahalliy gazmallardan tikilgan qo‘shoqlar, to‘g‘ri to‘rburchak shaklli ro‘mollar, belbog‘, belqars, kashtalar bilan bezatilgan chorsilar, qiyiqchalar juda rasm bo‘lgan⁴⁴.

Erkaklarning eng ko‘p va keng tarqalgan bosh kiyimi do‘ppidir. Do‘ppining tikilish va bezatilish uslubi Farg‘ona, Shahrisabz, Kitob tumanlarida bir-biridan farqlanib turgan.

⁴⁴ Содикова Н. Анъанавий ўзбек кийимлари. – Тошкент, 1992. – Б. 28.

Erkaklarning deyarli hammasi oyoqlariga mahalliy ustalar tomonidan tikilgan etik, kovush-maxsi, choriq, takaki, mukki, hakkari, toshtovon, choriq-poypush kabi oyoq kiyimlari kiyishgan.

O‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, uyg‘ur singari xalqlarning uzoq zamonlardan buyon yonma-yon yashab kelishlari tufayli ularning kiyimlari bir-birinikiga o‘xshab bo‘lib borgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ayollar kiyimlari erkaklarnikiga qaraganda o‘zida mahalliy elementlarni ko‘proq saqlab qolgan. Xotin-qizlarning eng ommaviy ko‘ylaklaridan biri «elka yoqali» yoki «kiftaki» deb atalgan ko‘ylaklar bo‘lib, erkaklarnikiga o‘xshab oldi ikki yoki bir tomonidan bog‘ichli qilib tikilgan. Bu ko‘ylaklarni ko‘proq qariyalar, shuningdek, qizlar ham kiyishgan.

XIX asr oxiridan tik yoqa ko‘ylaklar kiyish odat tusiga kira boshlagan⁴⁵. Dastlabki vaqtarda bu xil ko‘ylaklarni barcha yoshdagi xotin-qizlar kiyishgan. Keyinchalik u qariyalar ko‘ylagiga aylangan. Bu ko‘ylak tuman qishloqlarida no‘g‘ay yoqa yoki qozoqi yoqa deb yuritilgan. Mazkur tik yoqa ko‘ylak ityoqa (ittiqa) nomi bilan ham atalgan⁴⁶ yoqasi qo‘lda yoki mashinada tikilgan.

XX asrning 30-yillarida qishloqlarda ko‘krak burma ko‘ylaklar paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda bu ko‘ylaklar nusxalarida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va bugunga qadar ayollarimiz tomonidan kiyilmokda.

O‘zbek xotin-qizlari kiyim-kechaklaridagi o‘ziga xoslik ayniqsa ularning bosh kiyimlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. XX asrning 50-yillaridan boshlab do‘ppi kiyish odat tusiga kirgan. Farg‘ona vodiysida do‘ppi kiyish an'anaviy hisoblangan. Ayniqsa, Shahrисabz va Kitob do‘ppilarini juda mashhur bo‘lgan. Ayrim do‘ppilar to‘rtburchak, boshqalari dumaloq shaklda bo‘lgan. Sanama, iroqi, gilam nusxa nozik do‘ppi kabi do‘ppilar respublikaning hamma joylarida kiyilgan.

Yopinchig‘larning eng ko‘p tarqalgani paranjidir. Paranji tutish sekin-asta barham topgan bo‘lsa-da, uning o‘rnini turli ko‘rinishdagi ro‘mollar, yaktak chopon va bolalar kiyimlari egalladi. Shuningdek boshga yopinib yuriladiganlar-

⁴⁵ Qarang: Народы Средней Азии и Казахстана. Т. 1. – М., 1962. – С. 294-295; Широкова З. А. Одежда / Материальная культура таджиков верховье Зеравшана. – Душанбе, 1973. – С. 190; Ершов Н. Н., Широкова З. А. Альбом одежды таджиков. – Душанбе, 1969. – С. 43.

⁴⁶ Сухарева О. А. Ислам в Узбекистане. – Ташкент, 1960. – С. 74.

ning yana biri jegda bo‘lib, u paranjining bir ko‘rinishidir. Jelak yo‘l-yo‘l, siyom matolardan tikilgan, yenglari soxta qilinib paranji kabi orqaga tikib qo‘yilgan. Jelaklar turli ko‘rinishga ega bo‘lib, undan ayollarning oilaviy ahvoli, boy yoki kambag‘alligi sezilib turgan. Akademik K. Shoniyofovning yozishicha, o‘tmishda qipchoq xotinlari jelakni ikki-uch bolalik bo‘lgunlaricha yopinishgan.

Farg‘ona vodiysidagi o‘ziga xos muhit va islom dini ta’siri xotin –qizlarni paranji yopinishini taqazo qilgan. Bir-biriga yaqin mintaqada yashasalarda, ayrim manbalarda qayd etilganidek, Sharqiy Turkistonda ayollar ilgari paranji yopinmagan⁴⁷. Lekin axborotchilarining bergen ma'lumotlarida sharqiy turkistonlik ayollarning butunlay ochiq yurmaganini ta’kidlanadi⁴⁸.

K. Shoniyofov ta’kidlashicha, qarluq qizlari turmushga chiqqunlarigacha boshlariga qopdon degan ro‘mol yopinib yurgen. Qizlar qizil, to‘q-qizil matolardan ro‘mol o‘ragan bo‘lsa, ayollarning qopdonlari oq matodan tikilib shohbosh ustidan yopilgan. Doimiy kiyiladigan qopdonlar to‘q-qizil yoki sariq matodan tikilgan.

Hozirgi vaqtga kelib o‘zbek ayollari yuqoridagi bosh kiyimlarning hammasini ham kiyishmaydi, chunki turli xil rangdagi katta-kichik matolardan tikilgan ro‘mol asosiy bosh kiyimi hisoblanadi. Ro‘mollarni o‘rash uslublari ham o‘zgargan. Biz olib borgan tadqiqot natijasida o‘rganilayotgan viloyatlarning ayrim chekka qishloqlarida bunday bosh kiyimlarini o‘rash saqlanib qolgan bo‘lib, shahar sharoitida esa deyarli saqlanmagan.

Sharqiy Turkiston va Farg‘ona vodiysi savdo- iqtiodiy aloqalarida zargarlik buyumlari va taqinchoqlar katta o‘rin egallagan. Xo‘tan va Yorkentdan nefrit, feroza, la'l, yoqut toshlari, Xitoydan marvaridning keltirilib turilishi ushbu shaharlarda zargarlikning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Qadimiy savdo karvonlarida ham uyg‘ur zargar-hunarmandlari tomonidan yasalgan taqinchoqlar Turkistonning yirik savdo markazlariga keltirilgan. Farg‘ona vodiysi va Sharqiy Turkiston hunarmandchilik sohalarini zargarlik san‘ati ham boyitgan.

Ko‘p asrlardan buyon uyg‘ur zargar (zaga, zagachi) hunarmandlari o‘ziga xos maktab yaratgan va bu an‘ana davom etmoqda. Zargarlik asosan oilaviy kasb

⁴⁷ Валиханов Ч. Ч. Избранные произведения.... – С. 177.

⁴⁸ Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog’i. 2015 yil.

kor sifatida qaralib, bir yoki ikki usta, masalan ota-o‘g‘il, aka-ukalar birgalikda ishlaganlar. Kasb oila a’zolariga, o‘g‘il va nabiralarga o‘rgatib borilgan. Zargarlikning sir asrорlari juda maxfiy saqlanib, bosh ustagina bundan voqif bo‘lgan. Faqat vafotidan oldin kasbning jiddiy sirlari shogirdlarga bildirilgan⁴⁹. Odатда zargarlik ustaxonalari ustaning uyida, gohida bozorlarda ham savdo do‘konlari ishlagan. Zargarlar ko‘pincha buyurtma bilan taqinchoqlar yasagan.

Qo‘qon, Toshkent, Buxoro zargarlari ishlagan taqinchoqlarda naqshli (ornament) bezaklar ko‘proq uchrasa, qashqarlik zargar ustalar tomonidan tayyorlangan taqinchoqlarda tabiat manzarasi, xususan, gullar, qushlar, ilon tasvirlari ifodalangani bilan farqlanardi. Masalan, oltin va kumushdan ishlangan uzuklardagi panjara nus’halari o‘rniga gul va barglar tasvirlari, qimmatbaho toshlardan qo‘yib bezak berilgan.

Xullas, o‘zbek an'anaviy kiyim-kechaklari asrlar davomida o‘ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib keldi. O‘rta Osiyo zaminida yashagan xalqlar umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda o‘z turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati ijtimoiy negizidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos va mos tarzdagi madaniyatni yoritadi. Bu hol, asosan, kiyim-kechaklarda sezilishini alohida ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xalq etnik guruh kiyimlaridagi tafovutlarning kamroq sezilishi ham ular o‘rtasidagi madaniyatning uzviyligidan dalolat beradi.

Birgina Farg‘ona vodiysi aholisining an'anaviy kiyimlarini olib qaraydigan bo‘lsak, o‘ziga xos tarzdagi taraqqiyot aks etadiki, undagi mukammallik alohida ajrab turadi. O‘zbekistonning janubiy vohalarida ham bu jarayonni kuzatish mumkin. Qolaversa, ushbu hududlarda kiyimlardagi umumiylilik, bir xillik uchraydi. Kiyimlar bichimi, asosan, mintaqalar bo‘yicha shakllangan bo‘lsa-da, bichim, asosan, bir xilda, mato tanlash va mato rangini belgilash regionlarda bir-biridan farq qilgan. Shuning uchun ham biz tadqiqot olib borgan hududlar kiyim-kechaklari xilma-xil rang-barang va jozibali bo‘lganligi uchun tabaqlashganligini ham kuzatish mumkin.

⁴⁹ Каримова Р. У. Ювелирное искусство уйгуров Семиречья (конец XIX–XX вв / Маловские чтения (материалы конференции). – Алма-Ата, 1990. – С. 217.

1.3. An'anaviy milliy taomlardagi etnik va umummintaqaviy jihatlar

Dunyo xalqlarining taom tayyorlash an'anasi va madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Taom tayyorlashda xalq turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati xususiyatlari va iqlim sharoitlari o‘z aksini topgan. Shu bois taom va yemaklar umumxalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Binobarin, ovqatlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini, taom tayyorlashdagi milliy an'analarni bilish xalqlarning o‘zaro jipsligi va do‘stligini mustahkamlash imkonini beradi⁵⁰.

An'anaviy taomlar moddiy madaniyatning ajralmas qismidir. Xalq an'anaviy taomlari turli omillar ta'sirida uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib boradi. Bunday omillar qatorida dastlab xo‘jalik faoliyati omili, so‘ngra tabiiy, madaniy, diniy va siyosiy kabi omillarni sanab o‘tish mumkin. An'anaviy taomlarning uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanishi va ma'lum bir ma'noda konservativ ahamiyat kasb etishi natijasida taomlar o‘zida etnik belgilarni moddiy madaniyatning boshqa elementlariga nisbatan mustahkamroq saqlab qoladi. Biroq xalq turmush tarzining barcha jabhalarida kuzatilganidek, an'anaviy taomlar va ularning tayyorlanish texnologiyalari ham etnoslarning o‘zaro madaniy aloqalari natijasida shaklan va mazmunan boyib boradi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘zbekistonning turli tarixiy-etnografik mintaqalarida transformatsion jarayonlar jadal kechgan. Bunga sabab qilib yuqorida keltirilgan tarixiy davrda Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ko‘rsatishimiz mumkin. Mazkur jarayonlar xalq taomlari shakllanib kelayotgan an'anaviylikni inkor etmagan holda, uni mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqotimizning mazkur bandida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘troq va yarim o‘troq turmush tarzini kechirgan etnoslarning taomlaridagi etno-lokal xususiyatlar va o‘zaro etnomadaniy aloqalar natijasida qabul qilingan inoetnik xususiyatlarni ochib berishni maqsad qilganmiz. Zero, o‘zbek xalqining an'anaviy taomlari, xususan, Respublikamizning turli

⁵⁰ Худойшукуров Т., Махмудов О., Убайдуллаев Р. Ўзбек миллий таомлари. – Т., 1995. – Б. 4.

mintaqalarida yashovchi aholi taomlaridagi etno-lokal va etno-hududiy xususiyatlarning yig‘indisidan tashkil topgan.

O‘zbek xalqining ananaviy taomlari bir qator tadqiqotchi olimlarning ilmiy nashrlarida keng yoritilgan. Mazkur sohada mashhur etnograf Karim Shoniyofovning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, K. Shoniyofov o‘zbeklar tarkibidagi qipchoq va qorluqlarga xos taomlar to‘g‘risida o‘zining fundamental asarlarida keng to‘xtalib o‘tadi⁵¹. Mashhur elshunos olima B. X. Karmisheva ham janubiy mintaqalar aholisiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarida an'anaviy taomlar masalasiga diqqatga sazavor mulohozalar bildirgan⁵². Ushbu asarlarida olima janubiy mintaqada yashovchi turli xil etnik guruxlar, jumladan, laqaylar to‘g‘risida batafsil etnografik materiallar keltirib o‘tadi. B. Karmisheva tadqiqotlarining ahamiyatli tomoni shundaki, olima qiyosiy taqqoslash metodidan ko‘p hollarda juda o‘rinli foydalangan.

O‘zbek xalqining milliy taomlari to‘g‘risida to‘xtalganda, K. M. Mahmudovning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi⁵³. Olim o‘z tadqiqotlarida xalqimiz tomonidan iste'mol qilinadigan asosiy milliy taomlarning tarkibi va tayyorlanish texnologiyalari borasida batafsil ma'lumotlar berishga harakat qilgan. Biroq, K. Mahmudovning tadqiqotlarida etnologik nuqtai nazardan olib qaralganda, milliy taomlarning evolyusiyasi va etnik xususiyatlari to‘g‘risida yetarli ma'lumotlar uchramaydi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysi etnologiyasi bo‘yicha samarali izlanishlar olib borayotgan etnolog U. S. Abdullayev tadqiqotlarida ham Farg‘ona vodiysining o‘troq, yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi etnoslarining an'anaviy taomlari, ulardagi o‘zgarishlar, etnik va inoetnik komponentlar batafsil yoritilgan⁵⁴. Olim yig‘ilgan boy dala va faktik materiallar asosida yuqorida keltirilgan elatlar taomlari doirasida kechgan etnik jarayonlarning o‘ziga xos xususi-

⁵¹ Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа.. – С. 131.

⁵² Кармышева Б. Х. Узбеки-Локайцы Южного Таджикистана. – Сталинабад, 1954; O’sha muallif: Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976.

⁵³ Маҳмудов К. Ўзбек таомлари. – Тошкент, 1960. O’sha muallif: Мучные блюда узбекской домашней кухни. – Ташкент, 1960. Osha muallif: Узбекский плов. – Ташкент, 1979. O’sha muallif: Пловы на любой вкус. – Ташкент, 1989; O’sha muallif: Блюда узбекской кухни. Ташкент, 1985.

⁵⁴ Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент, 2005 . – Б. 120.

yatlarini olib berishga harakat qilgan. U. S. Abdullayevning tadqiqotlari nazariy yondashuvga asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi.

Surxon vohasi aholisining an'anaviy taomlariga bag‘ishlangan yaxlit ilmiy tadqiqot M. X. Fayzullayeva tomonidan amalga oshirilgan⁵⁵. Tadqiqotchi voha aholisi an'anaviy taomlarini tasniflab, ularni an'anaviy urf-odat va marosimlarda aks etish masalasini boy etnografik dala tadqiqotlari asosida yoritib bergen.

Tadqiqotimiz ob'yehti bo‘lgan respublikamizning shimoli-sharqiy mintaqalarida joylashgan turli elatlar madaniy–xo‘jalik tipidan kelib chiqqan holda taom tayyorlashda o‘ziga xos malakalarga ega bo‘lgan, ya’ni o‘troq aholi taomlari tarkibidagi komponentlar turmush tarzi ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik-dan iborat bo‘lgan elatlarnikidan birmuncha farq qilgan. Buni, xususan, Farg‘ona vodiysi xalqlarining an'anaviy taomlarida kuzatish mumkin. Agar vodiyning o‘troq o‘zbek, tojik, uyg‘ur kabi xalqlarining an'anaviy taomlari, asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan iborat bo‘lga bo‘lsa, qirg‘iz, qipchoq, qurama, turk, yuz kabi chorvador elatlar o‘z oziq-ovqatlarini tayyorlashda ko‘proq sut va go‘sht mahsulotlaridan foydalangan⁵⁶.

Farg‘ona vodiysida yashovchi o‘troq va yarim ko‘chmanchi xalqlarda ham tayyorlanadigan taomlarning asosini go‘sht, sut va un mahsulotlari tashkil etgan⁵⁷.

Vodiyning o‘troq aholisi taomlarida un va un mahsulotlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bug‘doy, arpa, makkajo‘xori va jo‘xori unlaridan tayyorlangan xamir ko‘plab an'anaviy taomlar pishirishda asosiy mahsulot hisoblangan. Xamirdan, asosan, turli non va non mahsulotlari tayyorlangan⁵⁸. O‘troq aholining noni tarkibidagi ba’zi qo‘srimcha mahsulotlari (piyoz, go‘sht, jizza, yog‘), tuzilishi va sifati bilan ko‘chmanchi aholi tomonidan tayyorlangan nonlardan farq qilgan. Jumladan, o‘troq aholi bayram va oilaviy marosimlar uchun aksariyat hollarda maxsus patir nonlar tayyorlagan. Farg‘ona vodiysi o‘troq aholisi orasida patirning ikki xilini tayyorlash keng tarqalgan edi. Birinchisi, 30–40 sm diametrli, ikkinchisi

⁵⁵ Файзуллаева М.Х. Национальная пища в традициях и обрядах населения Сурханского оазиса (Первая половина XX века). Автореферат. канд. дис... истор наук. – Ташкент, 2010. – 32 с.

⁵⁶ Абдуллаев У.С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар ... – Б. 122.

⁵⁷ Борозна Н. Г. Материальная культура узбеков ... – С. 118

⁵⁸ Махкамов К. М, Погосян А. И, Свинин С. Н. Узбекские лепешки. – Ташкент, 1974. – С. 48.

esa 25–30 sm diametrda bo‘lib, qatma–qat qilib yasalgan qatlama patirlar. Bu patirlar xamiriga, odatda, qo‘y yoki mol yog‘i qo‘shilgan⁵⁹. Farg‘ona vodiysi o‘troq elatlarida rusum bo‘lgan bolalar uchun kichkina o‘lchamdagи kulcha nonlar tayyorlash o‘zaro madaniy aloqalar natijasida o‘lkamizning turli hududlariga tarqalgan.

XIX–XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi turli etnik jamoalar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida makkajo‘xori unidan pishirilgan zog‘ora non keng tarqalgan edi. Bu non ko‘proq aholining kambag‘al qatlaming asosiy non mahsulotlaridan biri sifatida iste‘mol qilingan⁶⁰.

Vodiyning chorvachilik bilan shug‘ullanadigan aholisi, xususan, turk, yuz, qurama, qipchoq va qirg‘izlarda turli xildagi nonlarni qozonda pishirish keng tarqalgan bo‘lib, bu ko‘chmanchilikning belgilaridan biri hisoblanadi. Nonlarni tayyorlash usuli barcha yarim ko‘chmanchi etnik jamoalarda deyarli bir xil bo‘lib, ularning ayrimlari quruq qozonda qotirib olinsa, boshqalari esa qozonga yog‘ surtilib yoki quyilib unda pishirib olingan. Masalan, Farg‘ona vodiysi turklari xamirdan katta va yupqa qilib aylana shaklda yasalgan nonni qozonda yog‘ solmasdan qotirib olganlar. Bu nonni ular chevati deb ataganlar. Xuddi shu usulda tayyorlangan non farg‘onalik quramalarda yuqma, qipchoqlarda esa yupqa deb atalgan⁶¹. Qozonga yog‘ solinib, tayyorlangan non mahsulotlaridan qatlama, bo‘g‘irsoq, chalpak kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Qadimda va hatto hozirda ham Markaziy Osiyo hududida yashovchi o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, uyg‘ur, qipchoq kabi xalqlar go‘shtli, sutli, sabzavotli taomlar, mol hamda qo‘y yog‘ini ko‘plab iste‘mol qiladi. Manbalarda keltirilishicha, qadimda uyg‘urlar go‘sht, sut, qimiz bilan keyinroq oz-moz bug‘doy, guruch kabi dehqonchilik mahsulotlarini iste‘mol qilib kelgan. Hatto, uyg‘ur hoqonligi davrida uyg‘urlar sut, go‘sht bilan oziqlanishni asos qilgan. Tarixning qadim davrlaridayoq o‘troqlashgan uyg‘urlarning maishiy turmushining xarakterli jihatlarini pazandachiliqi va taomlari ko‘rsatadi. Uyg‘ur milliy pazandachilik xususiyatini ifodalovchi

⁵⁹ Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар ... – Б. 123.

⁶⁰ Шаниязов К. Ш., Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков.. – С. 107.

⁶¹ Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар ... – Б. 124.

ikkita asosiy omil mavjud: birinchisi masalliqni qanday turini ishlatalishi bo‘lsa, ikkinchi omil esa taomni tayyorlash uslubidir⁶².

Uyg‘urlar milliy taomlarini hazil qilib quyidagicha ta'riflaydilar. Masalan, palov- mehmonlarga pishiriladigan, lag‘mon mehr–muhabbat, manti-(uning 20dan ortiq turi bor, go‘sht, qovoq, kuyruq, bo‘loh, juvava, jusay, ochiq, gul, chingiz va xokazo.) erkaklar taomi. Chuchvara(choshura)- baxt-sinov toami. Ugra- hordiq vaqtida pishiriladigan taom, xolva (xolvaytar)- bolalar uchun, kabob esa savdoga pishiriladigan, norin-boy va sahiylar taomidir⁶³. Barcha uyg‘ur xonadonlarida lag‘mon eng ko‘p pishiriladigan taomdir. Lag‘mon xamiri qo‘l mehnati talab qilib, har bir kesilgan hamir qalamchasi qo‘l bilan burab, eshib, cho‘zib chiqilgan. Natijada xamir o‘ziga xos ta'mga ega bo‘lgan. Namokob suvda qaynatib, tez suziladi. Fasllar va iqlimga qarab lag‘mon qaylesi yoki sayga turli sabzavot va ziravorlar qo‘shish mumkin. Bahorda lag‘monga rediska, ko‘k piyoz, bodring, kuzda sholg‘om, turp, karam va albatta qaysi fasl bo‘lmasin, chinsay, sinsay, jusay kabi ko‘katlar qo‘shib tayyorlangan. Vodiylik uyg‘urlarda lag‘monning cho‘zma va kesma turlari ham mashhur⁶⁴.

Uyg‘urlar orasida choy tayyorlashning o‘ziga xos usullari shakllangan. Masalan, sut, qora choy, qaymoqni birga qaynatib tayyorlangan «etgen choy» xush ko‘rib iste'mol qilinadi. Qashqarliklar bunday choyga qaymoq va ko‘k choy qo‘shishgan bo‘lsa, G‘uljada qora choy qo‘shib iste'mol qilingan. Farg‘ona vodiy-siga choyning asosan besh turdag'i navi savdo uchun keltirilgan. Ta'miga karab qorachoy, ko‘kchoy, sabetchoy, fu-choy, syan'lunchoy kabi mahsulotlar olib kelib sotilgan. Namangan va Toshkent aholisi qora choy, Qo‘qon, Marg‘ilonda yashov-chilar sut va tuz qo‘shib tayyorlanadigan sabet choyni, Andi-jonda esa ko‘k choyni iste'mol qilganlar. Vodiyda yashovchi uyg‘urlar mahalliy sharoitlar asosida yovvoyi holda o‘sadigan ba'zi o‘simliklardan choy tayyorlashni yo‘lga qo‘yadilar. “Gul choy”, “olma choy”, “boshyopirmoq choy”, “qashqar choy”, “sut choy” kabi yangi choy bilan bog‘liq yangiliklar shu tarzda paydo bo‘ladi. Bundan tashqari,

⁶² Махмудов К. Ўзбек тансик таомлари. – Т., 1989. – Б. 11.

⁶³ Наринбаев А. Уйгуры / Под небом Киргистана. – Бишкек: 1995. – С. 121.

⁶⁴ Qarang: Валиханова Г. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент, 2014. – Б. 101.

«sinchoy» ham mashhur ichimlik bo‘lib, rossiyalik etnograf olim S. N. Abashinning ta’rificha «xitoy choyi»demak⁶⁵. Boshqa manbalarda aytilishicha, “sin”- xitoy tilida “ko‘k”, ya’ni ko‘kchoy ma’nosini bildiradi⁶⁶.

Bu iborani asosan Qashqar, O‘sh, Andijonda qadimdan yashab kelgan keksa uyg‘urlar qo‘llashadi. G‘ulja va Qashqardan ko‘chib kelgan uyg‘urlarning an’ana-viy taomlari orasida “etken choy” yengil taom sifatida ko‘proq tayyorlanadi. Sutga qaymoq, tuz, choy, qo‘sib qaynatib, non to‘g‘rab, chinnilarga quyilib, iste’mol qilingan. Keyinroq bu usulda tayyorlanadigan choy usullari mahalliylashib, «qaymoq choy»ga, ayrim joylarda «yog‘ choy»ga aylanib, ommalashadi. Biroq, chorvador qabilalarda ham «yog‘ choy» iste’mol qilingan. Umuman olganda, uyg‘ur taomlariga e’tibor kuchli bo‘lgan vodiyya bir qancha uyg‘ur yemakxonalari ishlab turgan. Ayniqsa, Andijondagi «Otalar choyxonasi» bosh oshpazi Mamato-xun Soqiyevning tayyorlagan uyg‘urcha taomlari butun mamlakatda mashhur bo‘lgan. Hozirda uyg‘ur va o‘zbek taomlarida umumiy o‘xhashliklar kuzatilsada, ba’zan nomlanishida farqlanishi mumkin. Uyg‘urcha lag‘mon, manti, manparlar mahalliy aholining tansiq taomlariga aylanib, tayyorlash usullarini qo‘snililar ham o‘zlashtira boshladilar. Hatto, «ipchoy» o‘ziga xos initsiatzion marosim sifatida asakalik o‘zbeklar tomonidan bajarilishiga ham guvoh bo‘lingan⁶⁷.

Farg‘ona vodiysi hududi bo‘ylab o‘tkazilgan etnosotsiologik so‘rovlardan ham uyg‘urlarni mashhur qilgan narsa bu ularning taomlari ekanligiga guvoh bo‘ldik. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, vodiyya o‘rnashib yashay bosh-lagan uyg‘urlar bilan mahalliy aholi o‘rtasida moddiy madaniyat borasida o‘z ko‘nikma va uslublarini ayrboshlash ancha faollashgan. Xususan, uyg‘urlar bilan vodiyliklarning uy-joy qurilishi, kiyim-kechaklari, taqinchoq va taomlarida mintaqaga xos umumiylilik aks etib bordi.

⁶⁵ Абашин С. Н. Чай в Средней Азии история напитка в XVIII–XIX веках / Традиционная пища как выражение этнического самосознания. – М.: Наука, 2001. – С. 212.

⁶⁶ Исламова З. Этнографизмы в кулинарной лексике уйгурского языка / Исследования по уйгурскому языку. – А., 1988. – С. 54.

⁶⁷ Qarang: Валиханова Г. Фарғона водийси уйғулари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент, 2014. – Б. 105.

II BOB. O'RTA OSIYO XALQLARI MAISHIY TURMUSHIDA AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSION JARAYONLARGA BUYUK IPAKEYO'LINING KO'RSATGAN TA'SIRI

2.1. O'zbek xalqining diniy turmush tarziga Buyuk Ipak yo'lining ta'siri

Markaziy Osiyo o'zining geografik va geosiyosiy joylashuvi tufayli turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning to'qnashuv nuqtasiga aylandi. Osiyo qit'asining Kaspiy dengizi va Orol-Irtish suv havzalaridan to hozirgi Pokiston va Hindistongacha bo'lgan katta qismini egallagan mintaqa – Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishta borib taqaladi. Ushbu xalqlar haqidagi yozma ma'lumotlar yunon manbalari va miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid qadimgi Eron va qadimgi turk yozuvlarida uchraydi. Biroz kechroq davrga mansub lotin manbalarida ham mintaqa turli dinlar va xalqlar markazi sifatida zikr etiladi⁶⁸

Mintaqa Yevrosiyo qit'asi markazida joylashgan bo'lib, Sharq bilan G'arjni bog'lovchi bo'g'inga, turli xalq va elatlarning, shuningdek, diniy tizim va e'tiqodlarning doimiy aloqa maydoniga aylandi. Bunday etnik va diniy turfaxillik natijasida shunday vaziyat yuzaga keldiki, u ko'plab dinlarning (zardushtiylik, buddizm, yahudiylik, xristianlik va moniylik) yo'qolib ketishiga qaramay, hozirgi paytda mintaqada yashovchi xalqlarning urf-odatlarida saqlanib qoldi. Mazkur diniy holatning o'ziga xosligi Markaziy Osiyo xalqlarining dinlararo bag'rikengligi asosi vazifasini o'tadi. Shu munosabat bilan mintaqadagi dinlar tarixini o'rganish hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari madaniyati va tarixini, qolaversa, ularning turliligi va bir paytning o'zida birligi asosida diniy va milliy kelib chiqishini to'laqonli tushunish uchun g'oyatda muhimdir.

Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga xristian cherkovi o'zining katta xissasini qo'shdi. eramizning birinchi asrlaridanoq, xristian dinidagi ayrim oqimlarining biri birlari bilan kelisha olmasliklari natijasida xristianlik O'rta Osiyo, Eron, Suriya va ipak yo`li orqali Sharqiy Turkiston va Xitoyga yoyila boshladi. Ular orasida pravoslav oqimining Melkit, YAkovit,

⁶⁸ Qarang: Ёвқочев Ш. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи. – Тошкент, 2006. – Б. 4.

Nestorianlik kabilarni keltirib o`tish mumkin. IV asrning oxiri – V asrning boshlariga kelib Vizantiya va uni qo`llab-quvvatlovchi hukmdorlar yetetiklarga qarshi kurashni avj oldirishdi. Eritiklar yo`nalishlari qatoriga nestorianlik ham kiritildi. Iso haqidagi ta`limot, muqaddas kitob, udumlar xususidagi turli fikrlar oxir oqibat xristian olamida bir necha oqim va yo`nalishlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Nestorianlik – oqimining tarafdorlari isoni inson qiyofasini va uning elchilik vazifalarini tan olgan xolda, Bibi Mariyamni xudoning onasi sifatida tan olishmaydi. Shu bois, 431 yilda efes shahridagi yig'ilishda bu oqim tarafdorlari eritik sifatida taqib qilinishga qaror chiqariladi. Buning natijasida ular Eronga qochib kelib o`rnashadilar va uning hayotida muhim rol o`ynashadi. Nestorianlik oqimining tarafdorlari Eronda davlat ahamiyatiga ega bo`lgan mansablarni qo`lga kiritadilar va tashqi savdoda faol ishtirok etadilar. Bu oqim vakillari orasida moxir tabiblar, o`qituvchilar, hunarmandlar bo`lib, xalq orasida katta e`tiborga ega edilar. Ularning O`rta Osiyo tomon tarqalishining asosiy sabablaridan biri zardushtiylik dining ruxoniylari tomonidan taqib qilinganliklaridadir. O`rta Osyoning Marv, Samarqand, Xorazm, Taroz, Merka, Yettisuv kabi shaharlarida xristian ibodatxonalar mavjud bo`lgan. Arablar istilosidan so`ng ularning ayrimlari buzib tashlangan, ayrimlari esa masjidlarga aylantirilgan. Bu haqda Narshahiy shunday yozadi: “Buxoro shahriga kirib chap tomonga burilsang, Rindon ko`chasiga kirasan. U yerda xristianlar cherkovi joylashgan, hozirda masjidga aylantirilgan”⁶⁹. O`rta Osiyoda xristian dinining tarqalganligi xususida arxeologik izlanishlar natijasida topilgan tangalar xam dalolat beradi. Jumladan, Usturshona xokimi Roxan tomonidan zarb qilingan bronza tangalarda nestarianlik oqimining xochi tasvirlangan. Afrosiyobdan topilgan VII asrga oid tangalarda hukmdorning bosh tomonidan xoch tasviri tushirilgan. Topilmalarda turli davrlarga oid xristian dining belgilari uchraydi. 691-692 yildan boshlab Isoni odam qiyofasi, undan oldinroq, feniks qushi tasviri uchraydi. Feniks qushi dastlabki paytlarda xristianlarda mangulik va qayta tirilish ramzi sifatida berilgan. Xitoya xristian dining yoy`lishida suriyalik xristian missonerlari bilan bir qatorda ushbu dinga e`tiqod qilgan tohariston va

⁶⁹ Qarang: Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 44.

so`g'd savdogarlarining o`rni katta bo`lgan. Xitoyda bu dinga e`tiqod qiluvchilarga erikinlik Tan sulolası davrida beriladi. Bu sulola vakillari savdo munosabatlarini yaxshilash maqsadida ularga e`tiqod erkinligini berishadi. Lekin, 10 asrga kelib xristian, budda, moniylik dinlari Xitoyda taqiqlanadi va ular quvg'inga uchraydi. Bu o`rinda shuni alohida ta`kidlab o`tish lozimki nestorianlik oqimining vakillari Buyuk Ipak yo`lining barcha tarmoqlari bo`lab o`z jonlarini xavf ostiga qo`yib bo`lsada diniy ta`limotlarini targ'ib qilganlar.

Monylik dini Buyuk Ipak yo`lida joylashgan shahar va xalqlar tarixida muhim rol o`ynagan dinlardan biridir. U o`z harakatini Eronning shaharlaridan boshlab, O`rta Osiyoning saxrolarigacha etib keldi. Moniylik dini dualistik dunyo-qarashlar zamirida shakllangan bo`lib, unda asosiy kurash doimiy raqiblar yorug'-lik va qorong'ulik o`rtasida bo`lib o`tadi. Moniylik ta`limoti rivoyatlariga ko`ra samoda doimo ikki kuch yorug'lik va qorong'ulik o`rtasida kurash bo`lib, qorong'ulik xudosiga qarshi kurash uchun birinchi odam Xormizd jo`natiladi. Unga yordamchi qilib, toza havo, iliq shamol, yorug'lik, havo va tozalovchi olov jo`natildi. Bu ta`limotga ko`ra barcha avvaliga qorong'ulik xudosiga bo`ysinadi, asta sekinlik bilan komillik sari harakat qiladi va uning changalidan xalos bo`ladi. Buning uchun u o`zi kabilar, hayvonlarni o`ldirmasliklari ularning go`shtini emasliklar kerak. eng qattiy taqiqlar ularning “saralanganlar”ga tegishli bo`lib bundaylar, oila qurmasliklar va hatto hayvonon uchun beriladigan o`tni ham yulmasliklari lozim. Vazifalari esa, doimo ibodatda bo`lish, moniylik dinini targ'ibqilishdan iborat⁷⁰. Saralangan o`lgan zahotlari jannatga tushishadi. Qolgan oddiy odamlar bir necha marotaba har hil qiyofada qayta tug'ilishlari lozim bo`ladi. Moniylik ta`limotining shiori “Kimki boy bo`lsa, kambag’al bo`ladi. ertaga sadaqa so`raydi⁷¹” Shu bosidan ham bu din kambag’al aholi orasida keng tarqala boshlaydi. Moniylik chog`idayoq bu din Eron, Ikki daryo oralig’i, Kichik Osiyo, Rim, O`rta Osiyo va Sharqda keng tarqaladi. Uning o`zi “mening dinim barcha xalqlarga barcha tillarda tushunarlidir” degan edi. Moniylik dini qanday bo`lmashin, u baribir hukmron din hisoblangan zardushtiylik manfaatlariga zid kelardi. Shu boisdan

⁷⁰ Qarang: Ёвқочев Ш. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи... – Б. 49.

⁷¹ Qarang: Жўраев У. Т. Дунё динлари тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 14.

sosoniyalar xukmdori Varaxran 1 tomonidan qamoqqa olinadi va qatl etiladi. Moniylik dinning O`rta Osiyodagi targ`ibotchilaridan biri bu Mar Amo bqlib, bu dining yoyo`lishida u ipak yo`lidan keng foydalanadi. Xitoyga moniylik dini Sharqiy Turkiston orqali kirib boradi.

O`rta Osiyoda yevreylar hayotiga oid ilk ma`lumotlar IV asrga ta`luqli bo`lib, Marvda istiqomat qilishgan. Ularning bu yerlarda yashaganliklarini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Topilmalarning birida shunday satirlar bitilgan: “Bu Iosifning o`g`li Pakorning shahsiy mulkidir”. Bu kabi topilmalar yaxudiylar Marg`iyona va O`rta Osiyoning boshqa shaharlarida istiqomat qilishganida dalolat beradi. Yahudiylarning bu yerga kelib o`rnashishlarini ko`plab olimlar Buyuk Ipak yo`li bilan bog`laydilar. Asosiy sabablardan biri bu Bar Kohbaning (132–135) rimliklarga qarshi qo`zg`oloni va uni shafqatsizlarcha bostirilishi hamda ommaviy qirg`in ularning ko`chishiga olib kelgan. Xorazmda yaxudiylar arablar bosqinidan bir oz ilgariroq kelib joylashadilar.

Ilk o`rta asrlarda Buyuk Ipak yo`li o`tgan shaharlar aholisining madaniyatiga va turmush tarziga buddizm o`zining katta ta`sirini ko`rsatadi. Din asoschisi Sidharta o`z izdoshlariga Dharma deb nomlanuvchi buddizmning asoslarini yozib qoldiradi. Keyinchalik bu asoslar budaviylik nomi bilan dunyoga taniladi. Buddizmning ikki oqimi bo`lib birinchisi-Xinyana (kichik g`ildirak), ikkinchisi-Mahayana (katta g`ildirak) deb nomlanadi. Birinchi oqim “xalos bo`lishning qisqa yo`li” bo`lib, unda dunyoviy hayotning barcha unsurlaridan to`la voz kechiladi. Asosan magadxa podsholigida keng tarqaladi. Ikkinci oqim Kushon podsholigida Kanishkaning hukmronlik yillarida keng tarqaladi. Xitoyliklar buddaviylik dini xaqidagi ilk tasavvurlarni shimoliy Baqtriyada yashagan yuechjilar bilan bog`lashadi. Baqtriyada budizmning keng yoyilganligini Ayrитом, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa manzilgohlaridan topilgan ashyoviy dalillar ham isbotlaydi⁷².

O`rta Osiyo xalqlari hisoblanmish parviyaliklar, toharistonliklar, farg`onaliklar, so`g`dlar Buyuk Ipak yo`lida asosiy savdo va turli madaniy qadriyatlarini tarqatuvchilari sifatida ishtirok etishgan.

⁷² Qarang: Ёвқочев III. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи... – Б. 51.

Manixeylikning ilk tarqalish hududlari Erondan sharqda joylashgan, oldingi Parfiyaga tegishli bo‘lgan yerlar, shuningdek Markaziy Osiyo bo‘ldi. VIII–IX asrlarga kelib manixeylik aynan shu hududlar orqali Sharqiy Turkiston va Sharqiy Osiyoga tarqaldi. Uyg‘ur, turk, sug‘diy, parfiy tillarda yozilgan ko‘pgina yodgorliklar manixeylik buyuk ipak yo‘li buylab tarqalib, jahon diniga aylanganligidan dalolat beradi.

Manixeylik faqatgina Sosoniylar davlatida tarqalib qolmasdan, Kushon imperiyasi hududiga ham kirib bordi. Bu haqda ko‘pgina tarixiy yozma manbalar dalolat beradi. Markaziy Osiyoda bu din eramizning III asridan XV asrigacha mavjud bo‘ldi. Bu din taqdiri haqida vatandoshimiz va buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: “Islom shaharlarida Mani dini tarafdarlari shu qadar ko‘p ediki, ularning hisobiga yetib bo‘lmashdi. Musulmon davlatlaridan tashqarida, ko‘pgina sharqiy turklar, Xitoy, Tibet va ayrim induslar manixeylikka e’tiqod qilardi⁷³”.

Markaziy Osiyoda manixeylikning yirik markazlari Marv va Samarcand bo‘lib, bu dinning Sharqda tarqalishida ularning roli juda katta bo‘lgan.

Yahudiylarning O’rta Osiyoda paydo bo‘lishi tarixi juda murakkabdir. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ularning bu yerda paydo bo‘lishlarini milodning birinchi asrida vujudga kelgan «Buyuk ipak yo‘li» faoliyati bilan bog‘laydilar⁷⁴. Buyuk ipak yo‘li, darhaqiqat, bo‘yoqchilik bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan yahudiylarning xom ashyo manbalariga yaqinroq mintaqalarga tarqalishiga sabab bo‘lgan. XIX asrda olib borilgan etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yahudiylar o‘zlarini Bobil asirlarining avlodlari deb bilganlar. Biroq, So‘g’d o‘lkalari, hozirgi g‘arbiy Buxoro tumanlari Bobil davlati hududlariga kirmagan. Shuningdek, yahudiylarning «Buxaro» so‘zining «Xabar» so‘zidan kelib chiqqanligi haqidagi an'anaviy rivoyatlari ham haqiqatdan uzoq. Yahudiylarning Balx shahrida paydo bo‘lishlari esa, faqatgina milodning IV asriga to‘g‘ri keladi.

⁷³ Qarang: Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 68.

⁷⁴ Qarang: Евреи в Средней Азии. Прошлое и настоящее. – Санкт-Петербург, 1995. – С. 187–247.

Milodiy IX–X asrlarda yahudiy jamoalari ancha ko‘psonli va erkin bo‘lganlar. Ulardan faqat urushga yaroqli bo‘lgan erkaklarga soliq (jizya) to‘laganlar. Yig‘ilgan soliqlarning faqatgina yarmi davlat xazinasiga topshirilgan. Qolgan qismi esa, jamoa boshlig‘i ixtiyorida qolgan⁷⁵.

2.2. Etnomadaniy jarayonlarda etnoslarning o‘zaro savdo-sotiqlarini munosabatlari

Etnoslararo munosabatlarni etnologik yo‘nalishda o‘rganishda ma'lum bir tarixiy-etnografik mintaqalarda yashovchi turli etnoslar va etnik guruhlar o‘rtasidagi savdo-sotiqlarini muhim ahamiyat kasb etishiga qaramay, hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyo xalqlari etnologiyasi tarixshunosligida, xususan, O‘zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy hududlari aholisining xo‘jalik, savdo va etnomadaniy aloqalarini etnografik materiallar asosida xar tomonlama chuqur tadqiq qilinmagan.

Ma'lumki, O‘zbekiston hududida qadim davrlardan savdo-sotiqlarini doimiy yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mintaqqa xalqlari nafaqat o‘zaro ichki savdo aloqalarini, balki Sharq va G‘arbdagi davlatlar bilan ham savdo-sotiqlarini olib borganlar.

Darhaqiqat, mintaqadagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda ichki, tashqi va tranzit savdoning yirik markazlaridan biri bo‘lgan Termiz, Qarshi, Shahrisabz, Qo‘qon, Namangan, Andijon kabi shaharlarning tutgan o‘rnini katta va beqiyos bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysiga qo‘ni-qo‘shni bo‘lgan mintaqqa va mamlakatlarda ishlab chiqarilgan ko‘plab mollarning bir qismi Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Chust va ushbu shaxarlarning atrofidagi bozorlarda sotilgan va o‘z o‘rnida ushbu shaxarlar ahli tomonidan ham ishlab chiqarilgan bir necha turdagisi mollar xorijiy mamlakatlarga sotish uchun olib chiqilgan.

⁷⁵ Qarang: Ёвқочев Ш. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи.... – Б. 51.

Shuningdek, o‘zaro savdo aloqalari rivojlanishida elchilarning ham malum roli bo‘lgan. Ular xatlar bilan birga sovg‘a tariqasida turli xil buyumlarni ham olib borganlar. Borgan yerlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holat hamda mazkur mamlakatning savdo imkoniyatlari haqida ham ma'lumot olganlar.

Yozma manbalarning shohidlik berishicha, XVIII asr o‘rtalarida Qo‘qon xoni Erdonobiy huzuriga kelgan xitoylik savdogar sovg‘a tariqasida atlas matolar va choy olib kelgan⁷⁶. Shuningdek, o‘z navbatida Qo‘qon xonligi savdogarlari va hunarmandlari ham Sharqiy Turkistonga o‘z mahsulotlarini olib borib savdo qilganlar. Chunonchi vodiylilik savdogorlar bu davrda Sharqiy Turkistonda doimiy faoliyat yuritgan. Qo‘qon savdogarlari Qashqarga hind va rus mollarini olib kelganlar. Bundan tashqari, bu yerga xonlikdan har yili ko‘plab ot, tuya, qoramol va 200000 boshga yaqin qo‘y-echkilar haydab kelingan⁷⁷

Umuman olganda ikki hudud o‘rtasidagi savdo aloqalarida vodiyliliklar – “andijonlik” degan umumiyy nom bilan atalgan savdogarlar muhim rol o‘ynagan. Ular ikki hudud o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalaridagina yetakchilik qilib qolmay, Xitoy, Sharqiy Turkistonning boshqa mamlakatlar bilan bog‘lovchi translyator vazifasini bajargan⁷⁸.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston mintaqasining ichidagi turli xo‘jalik- madaniy tiplarga mansub turli etnoslar o‘rtasidagi savdo aloqalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, tadqiqotchilar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqada uch xil ko‘rinishdagi savdo-sotiq mavjud bo‘lganligini ta‘kidlaydilar. Ya’ni, sayyor holda mol ayirboshlashga asoslangan savdo, vaqtı-vaqtı bilan tashkil qilinadigan yarmarka savdosi va nihoyat statsionar tarzdagi savdo⁷⁹.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan savdoning har bir ko‘rinishi ushbu davrda mavjud bo‘lgan ma'lum bir xo‘jalik tipiga muvofiq kelgan. Masalan, mollarni sayyor holda ayirboshlash savdosи ko‘proq yarimko‘chmanchi xo‘jaliklarga, yar-

⁷⁶ Кузнецов В. С. Цинская империя на рубежах Центральной Азии (вторая половина XVIII – первая половина XIX в.). – Новосибирск, 1983. – С. 56.

⁷⁷ Кўлдошев Ш. Т. Кўкон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII–XIX асрнинг ўрталари) . Тарих фан. ном. илмий дар. олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2009. – Б. 21.

⁷⁸ Кўлдошев Ш. Т. Кўкон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги .. – Б. 23.

⁷⁹ Абдуллаев У. С. Фарғона водийсидаги этнослараро жараёнлар... – Б. 128.

markalarda savdo qilish esa yarimo‘troq xo‘jaliklar uchun va nihoyat shahar va katta-katta aholi manzilgohlaridagi doimiy ishlab turuvchi statsionar savdo bilan mashg‘ul bo‘lish, asosan, o‘troq xo‘jaliklarga mos edi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, har bir xo‘jalik tipida yuqorida keltirib o‘tilgan savdo formalarining birortasi yetakchi mavqyega ega bo‘lgan holda, qolgan savdo formalari ham mavjud bo‘lishi tabiiy. Boshqacha qilib aytganda, turg‘un, yarimko‘chmanchi va ko‘chmanchi aholi o‘z turmush tarzi va hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib savdoning har uchala formasidan ham foydalangan. Farg‘ona vodiysida bir guruh o‘zbek, tojik, uyg‘ur savdogarlari qирг‘излар joylashgan olis ovullarga, janubiy mintaqalarda esa o‘zbek chig‘atoylar, tojiklar ayrim yarim ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari va arablar joylashgan hududlarga borib savdo munosabatlarini amalga oshirganlar. Ko‘chmanchi aholi yashaydigan hududlarda hali tovar-pul munosabatlari yaxshi rivojlanmagani bois, mazkur hududlarda olib borilayotgan sovdo-sotiq, asosan, mahsulot ayrboshlashga asoslangan edi.

O‘troq mintaqada istiqomat qilgan savdogarlar, asosan, ip-gazlama (mato), uy-ro‘zg‘or anjomlari, quruq meva kabi kundalik ehtiyoj mollarini ko‘chmanchi chorvodorlar yerlariga olib borganlar. Shoyi va nimshoyi hamda qimmatbaho taqinchoqlar u yerlarga faqat boy chorvadorlarning buyurtmasiga ko‘ra olib kelingan. Fayzulloh ibn Ro‘zbekxonning yozishicha, dasht ahliga «ko‘ylak va kiyim zarur bo‘lib, ularning asosi qismini karbos tashqil qilgan»⁸⁰. Muarrixning ko‘rsatishicha, bu gazlamalar turi, asosan, O‘rta Osiyo shaharlarida to‘qilib, «kiyim va kafan» uchun ishlatilgan. Bo‘z yoki karbosdan tashqari, Samarqand, Buxoro, Xiva shaxarlarida zandonachi, mitqol, qumoch, doka kabi matolar ham to‘qilib, qo‘sni davlatlarga olib borib sotilgan. Bu gazlamalar nafaqat sotilgan, balki ayrim hollarda to‘lov vazifasini ham o‘tagan. XVI asr muarrixining keltirishicha, Muhammad Shayboniyxon «Buxoro va Samarqandga tobe yerlar» aholisiga Dashti Qipchoqdagi o‘z asirlarini almashtirib olish uchun ko‘p tuyalarda karbos bergen⁸¹

⁸⁰ Файзуллах ибн Рузбихан Исфахани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р. П. Джалаливой. – М., 1976. – С. 101.

⁸¹ Агзамова Г. А. Сўнгти ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо... – Б. 17.

XIX asr oxiriga kelib O‘zbekistonning janubiy hududlarida yashovchi o‘zbek urug‘lari va Farg‘ona vodiysiagi qirg‘izlar orasida pul-tovar munosabatlari taraqqiy etib borishi shunga olib keldiki, an'anaviy xo‘jaligi ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu etnoslar savdo-sotiq qilish maqsadida mintaqadagi bozorlarga tez-tez va muntazam ravishda keladigan bo‘ldilar. Bozorga olib kelinayotgan mollarning ham turi ko‘payib bordi. Ular, endi nafaqat chorva va uning terisi yoki junini, balki ulardan tayyorlangan qator mahsulotlarni ham, chunonchi arqon, qop, kiygiz, gilam hamda bir necha xildagi kiyim-boshchlarni mintaqadagi bozorlarga ko‘p miqdorda olib chiqqa boshlaganlar. Ushbu xalqlar tomonidan bu davrga kelib bozorlarga, hatto, ba’zi turdagি sut mahsulotlari ham olib chiqila boshlandi. Masalan, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xo‘jand, O‘sh, Namangan, Chust bozorlarida qirg‘izlar va qipchoqlar, Qarshi, Shahrizabz, Termiz, Denov, Boysun bozorlarida qo‘ng‘iroq, saroy, toqchi-qatag‘onlar, juzlar kabi o‘zbek urug‘lari bilan birga mahalliy arablar qurt, qimiz va sariyog‘ bilan ham savdo qila boshladilar. Holbuki, ushbu sut mahsulotlarini sotish yoki isrof qilish qozoqlarda va, umuman, barcha chorvador xalqlarda xosiyatsiz hisoblangan. Go‘yoki, bundan chorvaga qattiq zarar yetgan yoki sog‘ib olinayotgan sut miqdori keskin kamayib ketgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran, ayniqsa XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi hududidagi mavjud yaylov va o‘tloqlarni dehqonchilik uchun, xususan, paxtachilik uchun o‘zlashtirilib borishi natijasida chorvachilik bilan shug‘ullanish imkoniyatlari oldingi davrlarga qaraganda tobora kamayib borgan. Natijada chorva mollarini, birinchi novbatda qo‘ylarning soni keskin kamayib ketgan. Bu, o‘z o‘rnida mahalliy aholining chorva mahsulotlariga, ayniqsa go‘shtga bo‘lgan talabi oshib ketishiga olib kelgan.

Bunday sharoitda Farg‘ona vodiysi hududiga qo‘shti va olis hududlardan, chunonchi Qorategin, Matcho, Hisor, Zomin, Samarqand, O‘ratepa, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, yettisuv hamda Qashqar va Afg‘onistondan ko‘plab chorva mollari olib kelina boshlagan. Jumladan, 1885 yilda Farg‘ona vodiysi hududiga

276983 bosh qo‘y sotish uchun keltirilgan⁸². 1893-1899 yillar orasida mintaqaga chetdan keltirilgan chorva mollarining umumiy soni 7 387 000 boshni tashkil qilgan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib Farg‘ona vodiysi hududiga har yili chetdan 3 500 000 boshga yaqin chorva mollari keltirila boshlagan.

Janubiy O‘zbekistonning Termiz, Boysun, Denov, Shahrisabz, Qarshi kabi yirik bozorlarida turkman va mahalliy arablar tomonidan to‘qilgan gilamlar ko‘plab sotilgan. Turkman va arab gilamlarining asosiy xaridorlari o‘zbek va tojiklar bo‘lgan. Ayni vaqtda bu gilamlar rus savdogarlari tomonidan ham katta miqdorda sotib olingan. Gilam oldi-sottisi bilan shug‘ullanadigan yoki uni bir necha ayollar mehnati bilan uyushgan holda tayyorlab sotuvchi uddaburonlar ham paydo bo‘lgan. Gilam oldi-sotti bilan nafaqat o‘zbek, tojik, arab savdogarlari, balki rus, tatar, yahudiy va armanlar ham shug‘ullanganlar. An'anaviy bezak san'ati na'munalarini yuksak darajada o‘zlarida aks ettirgan bunday gilamlar bozorlarda yuqori narxlarda sotilganligi ma'lum. Turkmanlar va arablar gilamlari o‘rniga, asosan, turli-tuman mahalliy Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Boysun to‘quvchilari tomonidan to‘qilgan matolarni: oq va bo‘yalgan xomsurp, olachalarni olib, kiyim tiktirib kiyganlar.

XIX asr oxiriga kelib Farg‘ona vodiysining Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon, Skobelov kabi shaxarlarida qirg‘iz gilamlari ko‘plab sotilgan⁸³. Etnograf K. I. Antipinaning ta'kidlashicha, qirg‘iz gilamlarining asosiy xaridorlari o‘zbeklar va tojiklar bo‘lgan. Gilam oldi-sottisi bilan shug‘ullanadigan yoki uni bir necha ayollar uyushtirgan holda tayyorlab sotuvchi tadbirkorlar ham paydo bo‘lgan. Gilam oldi-sottisi bilan nafaqat qirg‘iz, o‘zbek, tojik etnosiga mansub savdogarlar, balki rus, tatar va armanlar ham shug‘ullanganlar⁸⁴.

Farg‘ona vodiysi qipchoqlari tomonidan ham uy sharoitida tayyorlangan bir necha xildagi jun va ip-gazlama mahsulotlari, xususan bo‘g‘joma, xurjin, qop-argon va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari, chekmon va shalvar kabi kiyimlar hamda

⁸² Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии и санитарного описание Ферганской области... – С. 387.

⁸³ Абдуллаев У. С. Фарфона водийсидаги этнослараро жараёнлар... – Б. 111.

⁸⁴ Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. – Фрунзе, 1962. – С. 156.

ozroq miqdorda gilam va kigizlar bozorga olib chiqib sotilgan. Ayniqsa, qipchoqlarning gul solingan kiygizlari mahalliy bozorda xaridorgir bo‘lgan.

O‘rganilayotgan davrda O‘rta Osiyo shaharlari qatori O‘zbekistonning janbiy va shimoli-sharkiy mintaqalari shaharlarida ham hunarmandchilikning temirchilik turi rivojlangan. Shaharlarda turli metall buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha o‘z kasbining mohir ustalari mavjud bo‘lib, ular temir, bronza, cho‘yan, kumush, oltin kabi metallardan turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan buyumlar va zeb-ziynatlar ishlab chiqqanganlar⁸⁵. Temirchilar ustaxonalari bozorlarda joylashgan. Bu davrda Chust va Shahrixon pichoqlari, Ko‘qon degrezlari, Rishton va Boysun kulollari, Shahrisabz zargarlari mashhur bo‘lgan.

XX asr boshlarida mintaqada chetdan keltirilayotgan mollar ham mahalliy aholi orasida ommalasha bordi. Rossiyadan bu yerga, asosan temir, mis, cho‘yan, metall buyumlar, oltin tangalar, ip gazlamalar oshlangan teri, choy va qand kabi mollar keltirilgan. O‘zbekiston hududlaridan esa Rossiya shaharlariga, asosan ip-gazlama, kalava ip, ipak va jun gazlamalari, gilam, quruq meva singari mollar jo‘natilgan.

Mintaqada yashab turgan O‘rta Osiyolik yahudiylarning savdo-sotiqdagi faoliyatlar chor Rossiyasi hukmronlik davrida ayniqsa faollashgan. Chor hukumati O‘rta Osiyo yahudiylarining bunday faoliyatini hatto rag‘batlantirib ham turdi.

XIX asr oxiriga kelib shaharlarning tashqi va tranzit savdosining markazi tarzidagi ahamiyati ortib borishi bilan birga markaziy shaharlar bozorlariga turli mamlakatlar savdogarlarining kelishi kuchayib bordi. Mintaqaning katta shaharlarga Eron, Xitoy, Balx, Rossiya, Afg‘oniston, Hindiston mamlakatlaridan savdogarlarning doimiy ravishda kelishgan. O‘z navbatida mintaqadagi o‘zbek, tojik, qirg‘iz, uyg‘ur savdogarlari ular bilan birga uzoq-uzoq mamlakatlarga savdo qilgani borishgan.

O‘tmishda qadim ajdodlarimiz shisha tayyorlash jarayonlarini bilganlar va shishasozlikni Sharqqa yoyganlar, degan xulosaga kelish mumkin. Tuproqqal’adan

⁸⁵ Агзамова Г. А. Сўнгти ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик.. . – Б. 27.

jun, ipak va paxtadan tayyorlangan gazlamalar, rangli gilam topilgan. Arxeologlarning fikricha, jun va paxtadan ishlangan matolar shu joyning o‘zida to‘qilgan bo‘lib, ipak matolar “Buyuk Ipak yo‘li” orqali Xitoy tomonlardan olib kelingan. Bu esa o‘tmishda ota-bobolarimiz to‘kimachilik huna-rini puxta bilganliklarini ko‘rsatadi va “Buyuk Ipak yo‘li” Tuproqqa'l'a orqali o‘tganligini, bu qal'ada jahonning turli mamlakatlaridan kelib savdo-sotiq qilinganligini tasdiqlaydi. Marosimlar zali devoriga ishlangan rasmlar orasida qora, sariq tanli kishilarining borligi ham bu fikrning to‘g‘riligini ko‘rsatadi. Ye. Nerazikning ta'kidlashicha, topilgan gazlamalar juda nafis naqsh va turli ranglar bilan bezatilgan⁸⁶. Demak, shu davr kishilarining kiyinishi ham ancha madaniy-lashgan. Shuningdek, ko‘plab bezaklar, takinchoklar, ayollar uchun marvarid qo‘yilgan oltin sirga, ko‘krakka osiladigan oltin takinchoq, marvarid va suyakdan ishlangan munchoqlar, bosh kiyim va ko‘krak bezaklarining topilganligi bu xulosamizni to‘la tasdiqlaydi hamda hunarmandchilikning eng nafis turi - zargarlikning yanada rivojlanganini ko‘rsatadi.

2.3. Urf-odat va marosimlardagi etnik va lokal madaniyat uyg‘unligi

Dunyodagi barcha xalqlar kattami-kichikmi o‘ziga xos urf-odat, maro-simlar va qadriyatlargacha ega. Urf-odat va marosimlar maishiy turmush hamda oila hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Oilaning jamiyat bilan aloqasi qarindoshlik, qo‘shnichilik, mahalliychilik va do‘stona aloqalar orqali namoyon bo‘ladi. Bu aloqalar ming yillar davomida vujudga kelgan bo‘lib, oila va u orqali jamiyat ma'naviyi hayotida muhim rol o‘ynaydi. Zero, har qaysi millatning o‘ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hyech shubhasiz oilaning o‘rni va ta'siri beqiyos⁸⁷.

Ma'lumki oilaviy-maishiy hayotdagisi o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy siyosiy hayotiga qaraganda birmuncha sust kechadi. Oilada, uning ichki hayotida ko‘pincha jamiyatning ijtimoiy, siyosiy sohasiga bevosita aloqasi bo‘lmagan, yuz yillar davomida shakllangan o‘zaro munosabatlar, odob-ahloq me'yorlari va an'a-

⁸⁶ Sagdullayev.A .S. Qadimgi O’rta Osiyo tarixi. – T., 2002. – B. 32.

⁸⁷ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 52.

nalari qaror topadi. Odatlar almashinuvi, yangi an'analarning qaror topishi hatto jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yangila-nishlar davrida ham birdan ro'y bermaydi⁸⁸.

XIX asr boshlarida O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarida oilaning, asosan, ikki shakli mavjud bo'lib, bulardan birinchisi «katta patriarchal oilalar», ikkinchisi esa «kichik» yoki «oddiy oilalar» nomi bilan ilmiy adabiyotlarda yuritiladi.

Shuni ham aytib o'tish o'rinniki, oilaning ushbu har ikki shakli, aholining xo'jalik yo'nalishi va turmush tarzidan qat'i nazar, barcha etnik jamoalarda uchraydi. Bu haqida S. M. Abramzon, K. Shoniyozi, er-xotin Nalivkinlar, N. A. Kislyakov kabi tadqiqotchilarning asarlaridan yetarlicha ma'lumotlar olish mumkin⁸⁹.

XIX – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida uchraydigan barcha bunday patriarchal katta oilalarda ham O'rta Osiyo va Qozog'istonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi oilaviy munosabatlar patriarchal tartiblar asosiga qurilgan edi. Katta patriarchal oilalarda oila boshlig'i – ota avtoritar mavqyeiga ega bo'lib, oila bilan bog'liq barcha masalalarni xal qilishda u asosiy rol o'ynagan. Shu jumladan, oilanikoh munosabatlarida va oilaviy urf-odat, marosimlarni bajarish va tashkillashtirishda ham oila boshlig'inining mavqyei asosiy ahamiyat kasb etdi.

Dunyodagi ko'plab xalqlar kabi uyg'urlarning hayotida ham asrlar davomida shakllanib qaror topgan oilaviy munosabatlar, odob-ahloq me'yorlari va an'analar o'zga etnik muhitda ham saqlangani kuzatiladi. Uyg'urlarning oilaviy-maishiy turmushning o'ziga xos va umumiyligi bo'lgan xususiyatlari oila marosimlarida ayniqsa an'analarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga qaramay nikoh yoshlaridagi umumiylilik, turmush an'analaridagi o'xshashliklar uyg'urlarni vodiyning mahalliy, xususan o'zbek aholisi bilan yaqinlashuviga muhim asos bo'ldi. Oilalarning tuzilish jihatni, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari mazkur masalada dalil bo'laoladi. Zero, o'zga etnik muhitda kechgan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar natijasida uyg'urlarning mahalliy xalqlar bilan qator o'xshash an'analarini vujudga

⁸⁸ Кисляков И. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана.– Ленинград, 1969. – С. 29.

⁸⁹ Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л., 1971; Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент, 1964; O'sha muallif: К этнической истории узбекского народа. – Ташкент, 1974; – Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус, 1959; Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886; Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969.

keldi. Qadimdan bir-biriga yaqin mintaqada yashagan vodiy aholisi bilan uyg‘urlarning o‘zaro yaqinligi oila-turmush an'analarida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, oilaning ichki va hattoki tashqi munosabatlarida oila rahbari, ya'ni otaning o‘rni kattadir. U oila a'zolarining o‘zaro munosabatlarini, mehnatni to‘g‘ri taqsimlanishini, oilani uyushtirish, marosim va bayramlarni nishonlash, dam olishni tashkil etish kabilarni nazorat qilib borgan. Musulmon oilalarda ota(erkak)ning mavqeい ancha yuksak sanalib, faqat otagina hal qiluvchi ovozga ega hisoblangan. Tadqiqotlar jarayonida otaning millati doimo ustuvor bo‘lganligi kuzatildi. Shuningdek, oila a'zolari erkak kishining qaramog‘ida bo‘lib, u oilaning asosiy ta'minlovchisi deb qaraladi.

Uyg‘ur oilasida ham xilma-xil an'analar mavjud bo‘lib, ularning shakl va mazmuni yangi ijtimoiy munosabatlar zamirida boyib borgani kuzatiladi. Har bir oilaning ichki tartibi uni boshqalardan ajratib turishi tabiiy. Farg‘ona vodiysidagi mahalliy o‘zbek oilalari kabi uyg‘ur oilasining ichki tartiblari, udumlari ota-on, ota bilan farzandlar, ona va farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar asosida shakllangan. Ota va ona o‘rtasidagi munosabat oilaning yashovchanligini ta'minlagan. Garchi, oilaga ota rahbarlik qilsada, uni boshqarishda ona ham faol qatnashib boradi. Er va xotinning xo‘jalikka oid maslahatlari farzandar ishtirokisiz muhokama etilgan⁹⁰

Er-xotinning bir-biriga murojaatida vodiyliklarga xos bo‘lmagan «bu xonim(ya'ni ernen xotinga murojaati)», «bu kishim(xotinning eriga murojatida)» iboralarni ishlatalishadi. Ba'zan esa uyg‘ur oilasida ham er-xotin o‘zaro munosabatlarda bosh farzand ismi bilan murojaat qilishga odatlanadilar.

Sharqiy Turkiston ayollarining ancha erkin ekanliklari tarixiy manbalarda qayd qilgan bo‘lsada⁹¹, Farg‘ona vodiysi aholisining kuchli ma'naviy ta'sirida qolgan uyg‘ur ayollarining erkinliklari cheklana boshladidi. Ayol kishi erining ruhsatisiz, yakka-yolg‘iz uydan chiqishi ta'qiqla-nib⁹², u hech bir ishni o‘zicha

⁹⁰ Валиханова Г. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент, 2014. – Б. 185.

⁹¹ Валиханов Ч. Ч. Избранные произведения. – М., 1986. – С. 175.; Певцов М. В. Путешествие в Кашгарию и Кун-Лунь. Гос. Изд. Географической литературы, 1949. – С. 128.; Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Л., 1969. – С. 64.

⁹² Хамидов П. Ислом дини ва оила. – Т., 1960. – Б. 17.; Вагабов М. В. Ислам и семья. – М., 1980.– С. 32–37.

amalga oshira olmaydi. Ayol kishi ya'ni ona oila boshlig‘ining yordamchisi sifatida ro‘zg‘or ishlaridan tashqari farzandlar tarbiyasi uchun ham javobgardir. Oilada tarbiya muhim sanalib, ma'naviy-ahloqiy tarbiya mehnat tarbiyasi bilan birga olib borilgan⁹³. Binobarin, ro‘zg‘orda bolaning mehnatiga zarurat kuchlidir. Farzand tarbiyasi onaning zimmasida bo‘lsada, bolalar voyaga yeta boshlagach, otaning mas'ulligi va nazorati kuchayirilishi zarur. Farzandlar bilan otaning munosabatlarda ona vositachilik qiladi. Lekin oilada o‘g‘il farzandlar voyaga yeta boshlagach ko‘proq ota nazoratiga olinib, ularga dehqonchilik, chor-vachilik, jismoniy kuch talab qilinadigan ishlar o‘rgatib borilgan⁹⁴. Ay-niqsa, katta o‘g‘il hamisha ota yonida yurgan. Ayrim vaqtlarda oiladan tashqaridagi yumushlar katta o‘g‘il tomonidan bajariladi. Oilada bolalarni mehnat tarbiyasiga juda yoshligidan jalg qilinishi oilaning moddiy ah-volini yaxshilashga ko‘mak-lashish bilan birga oila oldidagi mas'uliyat-larini ham oshirib boradi.

Umuman, farzandlar ayniqsa qizlarning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadilar. Qizlar tikish, to‘qish, hamir qorish, ovqat pishirish, kir yuvish, hovli va mol-qo‘yga qarash kabi ayollarga xos yumushlarni bajarishni egallaganlar. Milliy an'analar, odatlar, milliy taomlar tayyorlash maxsus o‘rgatiladi. Jumladan, 8–9 yoshli qizlarni jimjalog‘ida chuchvara tugishga o‘rgatishni misol tariqasida keltirish mumkin. Oilada har bir farzandning o‘z ijtimoiy majburiyatlarini anglashi oilaviy munosabatlarni samimi bo‘lishini ta'minlaydi. Akalar hamisha uka va singillariga posbon bo‘lishni o‘z zimmalarida ulkan mas'uliyat deb his qilganlar. Oilaning katta farzandiga ota-onada tomonidan alohida e'tibor qaratib tarbiya berilgan. Chunki, katta bolaning tarbiyasiga qarab kichiklari ergashgan. Kichik farzandlar, o‘g‘illar ham doimo aka izmida yurgan. Katta farzand o‘g‘ilmi yoki qizmi yoshligidanoq onaning yaqin yordamchisi ham hisoblanadi. Kenja ukalarga akaning so‘zini ikki qilmaslik uqtirib borilgan. O‘z navbatida aka ukalariga, singillariga nisbatan talabchan, adolatli bo‘lishi darkor. Ular o‘rtasida taqsimlanayotgan mehnat turlari, avvalo ularning yoshi, layoqati, jinsiga qarab buyurilgan. Oilaning a'zolari o‘rtasida shunday ma'naviy –ahloqiy tartiblar shakllanki bu boshqalarda uchramaydi.

⁹³ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. Иккинчи нашр. – Т., 2000. – Б. 34.

⁹⁴ Бўриев О., Шоймардонов И., Насриддинов К. Ўзбек оиласи тарихидан. – Т., 1995. – Б. 99.

Xususan, farzand-lar, ayniqsa qizlar hyech qachon otadan avval uxlashmaydi⁹⁵. Oilada ayol va qizlar, ayniqsa kelinlar ota(erkak)lar bilan bir dasturxonda o‘tirmaydi-lar⁹⁶. Ayollar va bolalar alohida o‘tirganlar. Bizningcha bu shubhasiz vodiy aholisi ta’siri bo‘lsa ajabmas.Ota ruhsatisiz farzandlar o‘tirmaydi, hatto taomga qo‘l uzatmaydilar. Uylangan o‘g‘il keyinchalik ham otasining ruxsatisiz iqtisodiy ishlarni mustaqil hal eta olmagan. Ota dunyodan o‘tguncha butun oila, allaqachon nevarali bo‘lgan o‘g‘illar ham itoatkor bo‘lganlar⁹⁷.

Umuman, oilada xilma-xil an'analar mavjud bo‘lib, ularning shakl va mazmuni yangi ijtimoiy munosabatlar zamirida boyib borgani kuzatiladi. Oilada ota boshchiligidagi g‘azalxonlik, rubob, dutor bilan qo‘sish qaylash an'anasini bo‘lib, ko‘pincha dasturxon atrofida jamlangan oila a'zolari taomdan so‘ng, bir-biriga «choy baytlari», o‘zaro hazil-mutoyibalar, topishmoqlar aytishlari mumkin.

Uyg‘urlar hayotida islom dini an'analarini bilan qadimiy e'tiqod namu-nalari ham ko‘zga tashlanadi. Biroq, Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgandan so‘ng uyg‘urlarning maishiy turmushidagi udum va an'analar diniy muhit ta'siri ostida o‘zgara boshlagan. Mazkur omil maishiy turmush an'ana-larining o‘zgarishiga ta'sir ko‘rsatgan muhim va asosiy hodisa edi.

Boshqa bir xususiyat borki, bu uyg‘ur qiz va kelinlarining soch turmaklari ko‘rinishi. Odadta mahalliy o‘zbek xotin-qizlari sochlarini qirq yoki ikki kokilga ajratib juft qilib o‘rib yurgan bo‘lsalar, beva ayollar toq, ya’ni bitta qilib o‘rib yurganlar. E’tiborli jihat shundaki, uyg‘ur ayollar sochlarini doimo besh kokil qilib o‘rganlar. Ona bo‘lgan uyg‘ur ayoli, ikkinchi yoki uchinchi farzand dunyoga kelgandan keyingina kokillarini o‘zgartirib, ikkiga ayrib o‘rib olgan. Bu uyg‘ur ayolari uchun o‘ziga xos initsiatsiya ham hisoblanadi.

Shunday ekan, Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tgan uyg‘ur aholining maishiy turmushi, xususan, oila-nikoh masalasidagi ba’zi yangiliklarga to‘xtalish juda muhimdir. Farg‘ona vodiysi uyg‘urlariga bag‘ishlangan qator maqolalarda ularni

⁹⁵ Dala yozuvlari. Andijon viloyati Izboskan tumani To’rtko’l qishlog’i. 2015 yil

⁹⁶ Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod tumani. 2015 yil.

⁹⁷ Бўриев О., Шоймардонов И., Насриддинов К. Ўзбек оиласи тарихидан. ... – Б. 44.

qalinga amal qilmaganlari ko'rsatiladi⁹⁸. Ilgari qalin olmagan uyg'urlar vodiydag'i mahalliy aholi ta'sirida yashab turar ekanlar endi, bu jihatdan yangiliklar boshlandi. Endi ular ham nikohda qalin tuzishdi. Biroq, axborotchilarining ta'kidlashlaricha, ular o'zaro nikohda qalinsiz, aksincha mahalliy o'zbek va boshqalar bilan nikohda esa qalin olishni odat qiladilar⁹⁹. Fikrimizcha, oilaning iqtisodiy ahvolini tiklab olishda bunday imkoniyat qo'l kelgan bo'lsa kerak. Lekin uyg'urlar o'z millatdoshlariga yon bosib bu an'anaga amal qilmay, aksincha bir-birlarini qo'llab quvvatlaganlar. Asosan o'zbeklar bilan nikohda qalin sifatida chorva xususan qo'y, mol, yoki yer-mulk ba'zan pul so'rgan. Vodiy aholisining qalinga jiddiy amal qilishlari oilaviy ajralishlarga to'sqinlik qilgan bo'lsa kerak. Jumladan, erxotin Nalivkinlarning e'tirof etishlaricha, vodiyda ikkinchi, uchinchi va hatto to'rtinchi xotinga uylanishda ham qalin berilgan¹⁰⁰. Iqtisodiy shart-sharoitlar, diniy muhit albatta qalin an'anasini kuchaytirgan edi.

Umuman xulosa sifatida shuni aytish joizki, Farg'ona vodiysi hududiga ko'chib o'tib, o'zga etnik muhitda yashayotgan uyg'ur etnik guruhi vakillari ona tillarini, milliy odat va marosimlarini, o'ziga xos turmush tarzining ayrim muhim jihatlarini saqlab qolganlar.

⁹⁸ Губаева С. С. Население Ферганской долины.... – С. 517–518.; Сайдуллаев А. Ўзбекистонда яшовчи уйғурлар тарихи ва этнографияси // Педагогик таълим. – 2007. – №1. – Б. 74.

⁹⁹ Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Marg'ilon shahri. 2015 yil.

¹⁰⁰ Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщины оседлого туземного населения Ферганды... – С. 195.; Вагабов М. В. Ислам и семья. – М., 1980. – С. 18.

XULOSA

XIX asrning o‘rtalari – XX asrning boshlarida Farg‘ona vodiysiga ko‘plab etnik guruhlar vakilari kelib joylashgan. Farg‘ona vodiysining polietnik tarkibi bu hududda etnoslararo aloqalarni qizg‘in kechishini ta’minlagan. Xususan, Sharqiy Turkistonning avtoxton aholisi bo‘lgan uyg‘urlar ham ushbu tarixiy davrda vodiy tomonlarga ommaviy ravishda ko‘chib kela boshlaganlar.

Ikki asr davom etgan siyosiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma’naviy zug‘umlar tufayli Farg‘ona vodiysi va Sharqiy Turkiston o‘rtasida faol etnodemografik jarayonlar yuz berdi. Shuni ta’kidlash lozimki, vodiyga ko‘chib kelib yashay boshlagan uyg‘ur aholining maishiy turmushi, madaniyati, va hatto dunyoqara-shida o‘xshashliklar vujudga kela boshladi. Bu o‘xshashliklar ikki xalqni yanada yaqinlashtirdi. Farg‘ona vodiysida zinch yashovchi o‘zbek va qirg‘izlarning kuchli ta’siri ostida oila-nikoh an’analari, urf-odat va marosimlarining ayrimlari hamda turmush madaniyatining ba’zi jihatlarida yangiklar kuzatildi. Xususan, vodiyda ko‘pxotinlilik tez-tez uchrasada, uyg‘ur aholi orasida esa barham topib boradi. Ajralishlar soni keskin kamayib, ayolining erkinligi cheklanib bu maishiy turmushda ijobiy ahamiyat kasb etdi. Qashg‘arlik xo‘ja guruhi vakillarining ichki nikohlari saqlanib qoldi. Barqaror iqtisodiy sharoit va qo‘sni xalklar bilan nikohning ko‘payishi uyg‘urlarning qalinga intilishini kuchaytirdi.

O‘z etnik guruhi bilan nikohlar qalinsiz, o‘zbek, qirg‘iz va boshqalar bilan nikohlarda qalin olish boshlandi. Iqtisodiy va siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lsalarda, o‘zbek-uyg‘ur, uyg‘ur-o‘zbek va boshqa etnik guruhlar bilan aralash oilalar soni ko‘paydi. Barcha aralash nikohlar musulmon xalqlar bilan bo‘ldi. Xullas, etnik aralash oilalar sonining ko‘payishi esa uyg‘urlarga xos oilaviy an’analar, nikohga xos urf-odatlarni ommalashishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, uyg‘ur milliy odatlarning ham mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashib boyib modernizatsiyalashib borishi kuzatildi.

Farg‘ona vodiysi uyg‘ur g‘uj yashovchi alohida etnografik hudud bo‘lib, jamoaviy, oilaviy-maishiy, ma’naviy hayoti o‘ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Vodiysi uyg‘urlarining maishiy turmushi va madaniyatini o‘rganishga

bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin.Sharqiy Turkiston uyg‘urlarining Farg‘ona vodiysiga o‘tib joylashishi bu yerdagи aholi sonining sezilarli ortishiga sabab bo‘ladi. Yagona etnik nom bilan atalmay, yashash joyi «qashqarlik», «yorkentlik», «oqsulik», «tog‘lik», «do‘lon» va xokazo nomlar bilan atalib, 1921 yilda Toshkentda o‘tkazilgan quriloydan so‘ng bir vaqtlar unitilgan «uyg‘ur» nomi barcha sharqiy quriloydan so‘ng bir vaqtlar unitilgan «uyg‘ur» nomi barcha sharqiy turkistonlik muhojirlarga nisbatan yagona nom sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga vodiyda tez-tez uchraydigan xo‘ja, qashqarlik, oxun, tog‘lik iboralari ham uyg‘urlarga nisbatan qo‘llanilib kelinadi.

Farg‘ona vodiysida yashay boshlagan uyg‘ular moddiy-ma'naviy hayotida o‘zgarishlar yuz bergen. Sharqiy turkistonliklarining xonlikka ko‘chib kelishi xonlik iqtisodiyotiga, xususan qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga olib kelgan. Ular tomonidan bo‘sh yotgan yerkarning o‘zlashtirilishi, ko‘chmanchi chorvador qirg‘izlarning o‘troqlashuvini ancha tezlashtirgan. Bu borada mahalliy aholining xo‘jalik an'analarini, mehnat quollarini o‘zlashtirish bilan birga, o‘z navbatida vodiyning dehqonchilik va hunarmandchilik sohalarini o‘z milliy an'analar bilan boyitganlar. Shuningdek, Farg‘ona vodiysining irrigatsiya tizimidagi qator yangi Andijonsoy, Xo‘tanariq, Istanariq, Ulug‘nor, Chinobod kabi ariklarning qazish ishlarida faollik ko‘rsatganlar.

Vodiy aholisi bilan uyg‘urlarning maishiy turmushi, madaniyati, dunyo-qarashida o‘xhash an'analar vujudga keldi. Barcha etnik guruhalr uchun xos bo‘lgan an'anaviy oilaviy marosimlarning ba'zi jihatlari o‘zgardi. Shu bilan birga qarindoshlar o‘rtasidagi qudachilik va xo‘jalarning ichki nikohlari saqlanib qolgan. Keyinchalik uyg‘urlarni boshqa etnik guruhalr bilan o‘zaro nikoh munosabatlariga kirishishi ko‘payib borgan va odatiy holga aylanib ketgan. Buning natijada uyg‘ur madaniyati, maishiy turmushida vodiyning barcha xalqlariga xos an'analar, shuningdek, boshqa xalqlarning turmush tarzida uyg‘urlarga xos an'analar uyg‘unlashib borgan. Uyg‘urlarga xos urf-odatlarning ayrim tomonlari transformatsiyaga uchrashi kuzatilib, mahalliy aholi an'analar katoridan o‘rin egallay boshlaaydi.

Xususan, «tuz quydi», «so‘piliq choy», «mashrap» va boshqalar mahalliylashib ketadi.

Bundan tashqari, moddiy madaniyatdagi o‘zaro almashinuv jadal tus olgan. Uy-joy qurish, nomlash va jihozlashda mahalliy o‘zbeklar muhitiga moslashish kuzatilgan, hamda vodiy me’morchiligidagi qashqarcha uslublar paydo bo‘ladi. Xususan, qashqarcha ayvon, qashqarcha mo‘ri – o‘choq shular jumlasidandir. Uyg‘urlarni vodiyga ommaviy ko‘chib o‘tmasidan ilgari me’morchilikning “qashqarcha” uslubi ancha ommalashgan. Vodiyda yashay boshlagan uyg‘ur aholi ham mahalliy me’morchilik asosida uy joylarini qurgan va nomlaganlar. Muhojirlar sinchli uylarni, uy tomining nishabli qilishni o‘zlashtirgan. Hovlini ichki va tashqiga bo‘lish, uylarni istishda esa mahalliy o‘zbeklar kabi sandallardan foydalinishga o‘tilgan.

Vodiyning musulmon aholisining kiyim-kechaklari deyarli o‘xshash bo‘lsada, qo‘chib o‘tib yashay boshlagan uyg‘urlarning kiyim va bezaklarida ba’zi yangiliklar, o‘zgarishlar yuz beradi. Ayollar kiyimlaridagi bezak va gullar uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Bu holatni bosh kiyimlarda ham kuzatish mumkin. Ma’puda, qadaq do‘ppi, erkaklarning poshsho do‘ppilar o‘rniga «anjan», «marg‘ilon», «chust» do‘ppilar urf kiradi.

Uyg‘urlarning an'anaviy-milliy taomlari, umuman oshxonalar madaniyati ancha rivoj topgan. Vodiy uyg‘urlari taomlar ratsioni hamda tayyorlash texnologiyasini mahalliy o‘zbek aholi tomonidan juda tez o‘zlashtiriladi. Shuningdek, an'anaviy uyg‘ur taomlarining ba’zilari transformatsiyaga uchrab, mintaqaviy ahamiyat kasb etadi.

Uyg‘urlarning ko‘chib o‘tganlaridan so‘ng mahalliy aholi bilan integrasiysi ma’naviy madaniyatda ham o‘z aksini topgan. Bu yaqinlashuvni ularning maishiy turmushi va oila-nikoh munosabatlarining ba’zi tomonlarida ko‘rish mumkin. Aralash nikohlarning ko‘payishi o‘zaro madaniyatlar qorishuviga sabab bo‘lgan. Tojik, qirg‘iz, qozoqlarga nisbatan vodiy aholisining uyg‘ular bilan nikohga kirishuvi ancha jadal kechdi. Hukumat ko‘rsatmasi bilan 30-yillarda muhojir

uyg‘ur oilalarining farzandlari harbiyga jalg etilmagan, natijada aralash nikohlarning yanada ko‘payishiga sharoit paydo bo‘ldi.

Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tgan uyg‘urlar o‘z qavmidan ajralib, mahalliy o‘zbek, tojik va qirg‘izlarning kuchli ta’sir doirasida qolgan. Shu bois ham uyg‘urlar o‘z ona tillari bilan birgalikda mahalliy xalqlar tillarini ham yetarli o‘zlashtirishga erishganlar. Uyg‘urlarning tili va madaniyati haqida ma'lumot beruvchi manbalarda ularning tili, madaniyati o‘zbeklar (turkiylar) bilan o‘xshash, ularning o‘zagi bir ekanligi qayd qilinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimiy ajdodlarimiz tasavvuridagi yaxlit bir tizimdagi umumiyl umummintaqaviy jihatlar oilaviy marosimlarga kiruvchi tug‘ilish, nikoh va o‘lim bilan bog‘liq marosimlarni zanjirli tarzda bog‘lanishiga va ular, asosan, initsiatsiya tarzdagi marosimlarda aks etganligini kuzatish mumkin. Initsiatsion marosimlar mohiyatan insonning bir holatdan ikkinchi bir holatga o‘tish jarayonini shunchaki qayd etishgina emas, balki ushbu jarayonga imkon darajasida yordamlashish, uni yengillashtirish g‘oyasi mujassamlashgan.

An'anavyi oilaviy marosimlardagi initsiatsion sikllarga bola tug‘ilishi, nikoh va motam marosimida marosimiy poklanish (yuvinish), marosim sababchisiga maxsus tikilgan kiyim kiydirish, hamda marosim ob'ekti bo‘lgan shaxs soching holati (prichyoskasi)ni o‘zgartirish kabi marosimlar va urf-odatlar kirgan. Ayniqsa, qadimgi tasavvurlarga ko‘ra, bu dunyoga oyog‘i bog‘langan holda kelgan odamni vafot qilganda asl holida, ya’ni oyog‘ini bog‘langan holda u dunyoga kuzatish g‘oyasi motamda mayit oyog‘ining bosh barmoqlarini bog‘lash odatiga asos bo‘lgan va bala tug‘ilishi marosimidagi «tushov kesdi» udumi bilan mohiyatan bog‘liq bo‘lgan. Umuman olganda yuqorida tadqiq qilingan marosim va urf-odatlarda hayot va o‘lim orasidagi mental chegara shaffofligi hayotning mazkur bosqichlari bilan bog‘liq ko‘rinishlarni yagona bir tugunga bog‘lagan. Qolaversa, bunda o‘zbeklarning qadimiy va innovatsiya davridagi tasavvurlari ham muqovalangandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Rasmiy adabiyotlar:

- 1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
- 1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
- 1.3. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун қурашамиз. 10-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 181 б.
- 1.4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, -176 б.
- 1.5. Каримов И. А. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 67 б.
- 1.6. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2011. – 440 б.

II. Adabiyotlar:

- 2.1. Абашин С. Н. Чай в Средней Азии: история напитка в XYIII–XIX веках / Традиционная пища как выражение этнографического самосознания. – М.: Наука, 2001. – С. 60–90.
- 2.2. Абашин С. Н. Население Ферганской долины (к становлению этнографической номенклатуры в конце XIX–XX века) / Ферганская долина: Этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – М.: Наука, 2004. – 222 с.
- 2.3. Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги авлод, 2005. – 215 б.
- 2.4. Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л., 1971. – 229 с.
- 2.5. Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусство южных киргизов. – Фрунзе, 1962. – 156 с.

- 2.6. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 275 б.
- 2.7. Аҳмедов Б. Марказий Осиё тарихий манбаларининг ўрта асрларда Ўрта Осиё билан Хитой ўртасидаги савдо. Иқтисодий ва маданий алоқаларини ўрганишдаги ўрни / Тарихдан сабоқлар. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996. – 429 б.
- 2.8. Аҳмедов М. Қ. Ўрта Осиё меморчилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 142 б.
- 2.9. Аҳмедов Т. XIX–XX асрларда ўзбек кандалорлиги. – Тошкент: Фан, 1974. – 128 б.
- 2.10. Бартольд В. В. Киргизы. Исторический очерк / Сочинения. – М., 1963. – Т. II. – С. 28–40.
- 2.11. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ. – 335 б.
- 2.12. Бокиев О. Уйғурлар. – Тошкент: Билим жамияти, 1990. – 23 б.
- 2.13. Бейсембиев Т. Қ. «Тарихи Шахрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – С. 198.
- 2.14. Боровков А. К. К характеристике узбекских «умлаутных» или «уйгуризованных» говоров / Белек. С. Е. Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 70.
- 2.15. Бўриев О., Холиқов Д. Туркона удум ва анъана миллат кўрки. – Тошкент, 1997. – Б. 48.
- 2.16. Бўриев О., Шоймардонов И., Насирдинов Қ. Ўзбек оиласи тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
- 2.17. Бичурин Н. Я. Средняя Азия и Восточный Туркестан. – Алма-Ата: Гылым, 1997. – 353 с.
- 2.18. Валихонов Ч. Ч. Избранные произведения – М.: Наука, 1986. – 414 с.
- 2.19. Валихонов Ч. Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата: Наука, 1962. – С. 790.
- 2.20. Валихонов Ч. Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том III. – Алма-Ата: Наука, 1985. – С. 416.

- 2.21. Винников Я. Р. Национальные и этнографические группы Средней Азии по данным этнической статистики / Этнический процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1980.
- 2.22. Винников Я. Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине / СЭС II. – Москва, 1959. – С. 90–96.
- 2.23. Воронина В. Л. Жилище народов Средней Азии и климат / Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1982. – С. 238.
- 2.24. Воронина В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – Москва: Госиздат, 1951. – 168 с.
- 2.25. Воронина В. Л. Старые жилые дома Ферганы / Архитектура СССР. – Москва, 1940. – №3. – С. 45–49.
- 2.26. Литвинский Б. Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока / – Москва: Наука, 1986. – 253 с.
- 2.27. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в (Этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991. – 230 с.
- 2.28. Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганской долины в конце XIX – начале XX в (по данным топономии). – Ташкент: Фан, 1983. – 103 с.
- 2.29. Ёвқочев Ш. Марказий Осиё халқлари динлари тарихи. – Тошкент, 2006. – 171 б.
- 2.30. Жалилов С. Андижон. – Тошкент, 1989. – 78 б.
- 2.31. Жабборов И. Ўзбеклар: (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). – Тошкент: Шарқ, 2008. – 240 б.
- 2.32. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент, 1994. – 312 б.
- 2.33. Зуннунова Г. Ш. Тошкент ўзбекларининг анъанавий уй-жойлари ва унинг ўзгариши / Тошкент маҳаллалари: анъаналар ва замонавийлик. – Тошкент, 2002. – С. 73–85.
- 2.34. Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари (этнографик материаллар). – Тошкент: Фан, 1975. – 54 б.

- 2.35. Исақов Б. Р. Фарғона вилояти аҳолисининг этник таркиби / Марказий Осиёда анъанавий ва этномаданий жараёнлар. 1-қисм. – Тошкент, ТДШИ нашриёти. 2005. – 179 б.
- 2.36. Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари
- 2.37. Кисляков И. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана. – Ленинград, 1969. – С. 240.
- 2.38. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 8–31.
- 2.39. Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. -Тошкент., Мехнат. 1999. – 339 б.
- 2.40. Марданова Г. Нур тўла уй. – Тошкент., Мехнат. 1992.-88 б.
- 2.41. Матбооеv Б. Буюк Ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон: Мерос, 1994.
- 2.42. Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – 293 с.
- 2.43. Нозилов Д. А. Марказий Осиё меъморчилигига интерьерьер. – Тошкент: Фан, 2005. – 216 б.
- 2.44. Садвакасов Г. М. Язык уйгуров Ферганской долины. Ч.II. – Алма-Ата: Наука, 1976. – 282 с.
- 2.45. Садвакасов Г. М. К вопросу о взаимодействии уйгурских и узбекских говоров Ферганы / Этнический процесс у национальных групп Средней Азии и Казахстана. –Москва: Наука, 1980. – С. 94–104.
- 2.46. Писарчик А. К. Традиционное отопление жилищ оседлого населения Средней Азии в XIX -XX в / Жилища народов Средней Азии и Казахстана.- Москва: Наука, 1982.
- 2.47. Рассудова Р. Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганского-Тошкентского региона (XIX–XX вв) / Традиционная одежда Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1989. – 252 с.
- 2.48. Худойшукоров.Т., Маҳмудов О., Убайдуллаев Р. Ўзбек миллий таомлари. – Т., 1995. – 152 б.

- 2.49. Хўжаев А. Буюк Ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. – 456 б.
- 2.50. Шайхов А. И., Усманходжаев А. Х., Шайлов М. М., Маҳсудов М. Х. Узбекский дастархан, рецепты, обычай. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2003. – 157 с.
- 2.51. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.